

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AGZAMOVA DILDORA BAXADIRJANOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI OLAMI MANZARASIDA “XOTIRA”
FENOMENI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Science (DSc)

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
филологическим наукам**

Agzamova Dildora Baxadirjanovna

Ingliz va o‘zbek tillari olami manzarasida “Xotira” fenomeni.....3

Agzamova Dildora Baxadirjanovna

Phenomenon “Memory” in English and Uzbek linguistic pictures of the world...39

Агзамова Дилдора Бахадиржановна

Феномен «Память» в английской и узбекской языковых картинах
мира.....77

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....81

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AGZAMOVA DILDORA BAXADIRJANOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI OLAMI MANZARASIDA “XOTIRA”
FENOMENI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/Fil570 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy Kengash veb sahifasida (www.nuu.md.uz) va "ZiyoNET" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Mamatov Abdi Eshonqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Madjidova Ra'no Urishevna
filologiya fanlari doktori, professor

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna
filologiya fanlari doktori, professor

Dosbayeva Nargiza Turg'unpo'latovna
filologiya fanlari doktori, dotsent


Yetakchi tashkilot:

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "04" aprel soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Farobiy ko'chasi, 400. Tel.: (+99871) 246-08-62; faks: (+99871) 246-65-24; email:nauka@nuu.uz. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti (3-qavat, 3-11-xona).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (36 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "20" mart kuni tarqatildi.
(2025-yil "20" mart dagi 24 raqamli reyestr bayonnomasi).



I.A.Siddiqova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

Sh.O.Nazirova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.n.

S.E.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi diqqat markazidagi dolzarb vazifalardan biri turli tizimli tillardagi mental hodisalarning lingvokognitiv tadqiq qilinishi hisoblanadi. Dunyo tillarida psixik jarayon hisoblanuvchi “Xotira” fenomenining o‘rganilishida psixologiya, tibbiyot, falsafa, mantiq; zamonaviy tilshunoslik sohalaridan kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishlarida konseptuallashtirish, kategoriyalashtirish hamda ularning olamning lisoniy manzarasida ifodalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fenomenni olam manzarasi turlaridagi konsept va kategoriya sifatida gavdalanishini kognitiv modellashtirish hamda tipologik tasnif qilish dolzarb masala sanaladi.

Dunyo tilshunosligida xotiraga doir kognitiv sharhlar tadqiqi o‘tgan asrning ikkinchi yarmida ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylandi va hanuzgacha ushbu mavzuning lisoniy jihatlari ustida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. “Xotira” tushunchasi bugungi kunda tilshunoslik fanining ilmiy apparatidan yetakchi o‘rinlarni egallamoqda. “Xotira” turlari sonining ko‘payib borishi ushbu dinamik hodisaning rivojlanayotganidan dalolatdir. Sohada lisoniy hodisalarni lingvokognitiv, lingvomadaniy tadqiq qilish bu boradagi muammolar yechimiga alohida ilmiy yo‘l, desak xato qilmagan bo‘lamiz. Xususan, “Xotira” fenomeni kognitiv hamda lingvomadaniy nuqtayi nazardan o‘rganilishi hozirgi kunda til va muloqot, til va madaniyat kabi munosabatlarni o‘rganishga talab kuchaygan bir sharoitda o‘ta dolzarb hisoblanadi. Dunyo tilshunosligida kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, psixolingvistik hodisalar, olamning lisoniy manzarasidagi umumiy va o‘ziga xos xususiyatlar kabi yo‘nalishlar doirasidagi tipologik ilmiy tadqiq jadal tus olgan bo‘lsa-da, “Xotira” fenomeni kabi lingvomenta birliklarning turli xalqlar olami manzaralarida konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish tadqiqi metodologiyasi hamda tipologiyasi ishlab chiqilmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Xotira va qadrlash kunida so‘zlagan nutqida “Bugun barchamiz avvalo buyuk g‘alabaga beqiyos hissa qo‘shgan, mana shu yorug‘ kunlarga yetib kela olmagan aziz insonlarni yod etamiz, ularning xotirasi, pok ruhlari oldida ta’zim qilamiz. Shafqatsiz urushda, mashaqqatli mehnat frontida mardlik va jasorat ko‘rsatgan barcha faxriylarimizga yuksak hurmat hamda ehtirom, chuqur minnatdorlik bildiramiz”¹, – deb frontda halok bo‘lganlarni xotirlaydi.

Vatanimizda xotiraga davlat miqyosida ahamiyat berilmoqda, xususan, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “Xotira, qadr degan tushunchalar azal-azaldan el-yurtimizning tafakkuri, ma’naviy hayotimizning ajralmas bir qismi bo‘lib keladi. O‘zini, o‘z el-yurtining o‘tmishini, tarixini eslamaydigan, bilmaydigan, o‘z xotirasida saqlamasdan yashaydigan odam bolasini, ongli insonni tasavvur qilib bo‘lmaydi”².

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xotira va qadrlash kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 09.05.2019 // <https://uza.uz/posts/58400>.

² Каримов И.А. Бу буюк Ватанда инсон улуғ, хотира – муқаддас // Халқ сўзи. – № 91. – Тошкент, 2011. 10 май. – Б. 1.

Milliy tilshunosligimizda “Xotira” kabi lingvomentall fenomenni lingvokognitiv tahlil qilishda yagona bir metod va tipologik yondashuvlar hali yechim topmagan. O‘zbek tilini jahon tillari qatoriga qo‘shishda, albatta, qiyosiy plandagi ilmiy ishlar dolzarbligicha qolmoqda. O‘zbek tilini jahonga tanitishda ingliz va o‘zbek tillari asosida bajariladigan tadqiqotlarni rivojlantirishda davlat siyosati darajasida ingliz tilini o‘rgatish tobora ommaviy tus olmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.08.2017-yildagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori³, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-sonli qarori⁴, 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni⁵ hamda ushbu sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar bajarilishiga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. “Xotira” fenomenini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), London kollej universiteti (Buyuk Britaniya), Groningen universiteti (Gollandiya), Edinburg universiteti (Buyuk Britaniya), Umea universiteti (Shvetsiya), Myunxen Ludwig-Maximilians universiteti (Germaniya), Lissabon universiteti (Portugaliya), Bishkek gumanitar universiteti, Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti, Ural Davlat pedagogika universiteti, Rossiya fanlar akademiyasi Rus tili instituti, Moskva Davlat universiteti, Rossiya fanlar akademiyasi tilshunoslik instituti, A.S.Pushkin nomidagi Rus tili davlat instituti (Rossiya Federatsiyasi), Kolumbiya universiteti (AQSh), Amerika antropologlari assotsiatsiyasi, Sasseks universiteti (Buyuk Britaniya), Kembridj universiteti (Buyuk Britaniya), Bristol universiteti (AQSh), Myunster universiteti (Germaniya), Toronto universiteti (Kanada), Amerika psixologlari assotsiatsiyasi (AQSh), Garvard universiteti (AQSh), Kaliforniya universiteti (AQSh), Chikago universiteti (AQSh), Birmingem universiteti (Buyuk Britaniya), Kuinsland universiteti (Avstraliya), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Farg‘ona davlat universiteti (O‘zbekiston)da o‘rganilgan.

Jahon tilshunos olimlari tomonidan kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, konseptualashtirish va kategoriyalashtirish hodisalari, olamning lisoniy manzarasi hamda “Xotira” fenomeni borasidagi tadqiqotlarda quyidagi natijalarga erishilgan: kognitiv tilshunoslik borasida Land universiteti

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.08.2017-yildagi 610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-3304915>.

⁴ “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/5426736>.

⁵ “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi PF-158-sonli Farmoni. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>.

(Shvetsiya, Lan), Oksford universiteti, London kollej universiteti, Groningen universiteti (Gollandiya), Edinburg universiteti (Buyuk Britaniya), Umea universiteti (Shvetsiya), Myunxen Ludwig-Maximilians universiteti (Germaniya), Lissabon universiteti (Portugaliya), Bishkek gumanitar universiteti, Mirzo Ulug‘bek nomli O‘zbekiston Milliy universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (O‘zbekiston); lingvomadaniyatshunoslik sohasida Moskva davlat xalqaro munosabatlar instituti (Rossiya federatsiyasi), A.S.Pushkin nomidagi Rus tili davlat instituti (Rossiya federatsiyasi), Samarqand davlat chet tillar instituti, Kolumbiya universiteti (AQSh), Amerika antropologlari assotsiatsiyasi; xotira turlari hamda funksiyasi borasida Sasseks universiteti, Kembridj universiteti, Bristol universiteti (AQSh), Myunster universiteti (Germaniya), Toronto universiteti (Kanada), Amerika psixologlari assotsiatsiyasi (AQSh), Garvard universiteti (AQSh), Kaliforniya universiteti (AQSh), Mirzo Ulug‘bek nomli O‘zbekiston Milliy universiteti; lingvokognitiv kategoriyalashtirish borasida Chikago universiteti (AQSh), Birmingem universiteti (Buyuk Britaniya), Kuinsland universiteti (Avstraliya), Oksford universiteti (Buyuk Britaniya), Ural Davlat pedagogika universiteti (Rossiya federatsiyasi); lisoniy ong va olamning lisoniy manzarasining chog‘ishtirma tarzda Ural davlat pedagogika universiteti, Rossiya fanlar akademiyasi Rus tili instituti, Moskva davlat universiteti, Rossiya fanlar akademiyasi tilshunoslik instituti, (Rossiya federatsiyasi), Tambov davlat universiteti, Farg‘ona davlat universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston Milliy universitetlarida o‘rganilgan⁶.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Zamonaviy tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasida lingvokognitiv konseptualashtirish hamda kategoriyalashtirish muammolariga bag‘ishlangan qator ilmiy ishlar mavjud. Tadqiqot metodologik bazasini xorijiy va mahalliy olimlarning lisoniy ong hamda olam manzarasi sohasidagi Y.D.Apresyan, L.O.Butakova, Y.N.Karaulov, Y.S.Kubryakova, V.I.Postovalova, M.M.Russo, Y.V.Sergeyeva, B.A.Serebrennikov, Y.A.Sorokin, V.N.Teliya, Y.V.Urison, Y.S.Yakovleva, Z.A.Akbarova, R.U.Madjidova, R.X.Shirinova kabi olimlarning ilmiy ishlari⁷, kognitiv tilshunoslik va

⁶ Sharh quyidagi manbalar asosida taqdim etildi: www.edu.uz, academia.edu, www.cognitivelinguistics.org, www.ed.ac.uk, www.lmu.de, www.bhu.kg, www.mgimo.ru, www.samdchi.uz, www.utoronto.ca, www.columbia.edu, www.americananthro.org, www.sussex.ac.uk, www.uchicago.edu, www.birmingham.ac.uk, www.uq.ed.au, www.uspu.ru, www.ras.ru, www.msu.ru, www.tsutmb.ru, www.tsuul.uz, www.nuu.uz

⁷ Апресян Ю.Д. Избранные труды. Школа «Языки русской культуры». Том II. Интегральное описание языка и системная лексикография. 2-е изд., испр. и доп. – М.: Восточная литература, 1995. – 767 с.; Караулов Ю.Н. Русская языковая личность и задачи её изучения // Язык и личность: Сб.науч.тр. – М.: Наука, 1989. – С. 3-8.; Кубрякова Е.С. В поисках сущности языка: вместо введения // Когнитивные исследования языка. Вып. IV. Концептуализация мира в языке: коллектив. моногр. – М.: ИЯ РАН. – Тамбов: Тамбовский гос. ун-т, 2009. – С. 11-24.; Постовалова В.И. Картина мира в жизнедеятельности человека // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. – М.: 1988. – С. 8-168.; Руссо М.М. Неогумбольдтианская лингвистика и рамки «языковой картины мира» // Политическая лингвистика, 2014. – № 1 (47). – С. 12-24.; Сергеева Е.В. Языковая картина мира современных оппозиционных Интернет-СМИ: значимость иронии как приема речевого воздействия // Политическая коммуникация: перспективы развития научного направления: мат-лы Междунар. науч. конф. – Екатеринбург: Уральский гос. пед. ун-т, 2014. – С. 232-236.; Серебренников Б.А. Сводимость языков мира, учет специфики конкретного языка, предназначенность описания // Принципы описания языков мира. – М.: Наука, 1976. – С. 7-52.; Сорокин Ю.А. Этническая конфликтология. – Самара: Русский лицей, 1994. – 94 с.; Телия В.Н. Метафоризация и ее роль в создании языковой картины мира // Роль человеческого фактора в языке. Язык и картина мира. – М.: Наука, 1988. – С. 173-205.; Урысон Е.В. Ум, разум, рассудок, интеллект // Новый

lingvomadaniyatshunoslik fan sohalarida lingvokognitologiya nazariyasi borasida Dj.Lakoff, M.Jonson, N.N.Novokhatko, N.Koen, D.Divyak, S.Kalyan, C.Brugman, D.Geeraerts, H.Cuyckens, E.Rosh, J.R.Taylor, J.Lepper, N.N.Boldirev, Y.S.Dzyuba, V.Z.Demyankov, Y.S.Kubryakova, Z.D.Popova, I.A.Sternin, Y.S.Stepanov, R.M.Frumkina, D.U.Ashurova, M.R.Galiyeva, A.G.Yuldashev, N.Z.Nasrullayeva⁸ va boshqalar; lingvokonseptologiya va lingvomadaniyatshunoslik sohasida konsept hamda kategoriya muammolari Tanja E.Bosch, A.Vejbiskaya, S.G.Vorkachev, V.I.Karasik, V.A.Maslova, M.V.Pimenova, N.N.Boldirev, J.J.Bo‘ronov, M.I.Rasulova, A.E.Mamatov, Sh.S.Safarov, D.U.Ashurova, M.R.Galiyeva, O‘.Q.Yusupov, N.M.Djusupov, Y.A.Arustamyan va boshqalar⁹; xotira nazariyasini psixologiya, falsafa, tarix,

объяснительный словарь синонимов русского языка. Вып. 1. – М.: Языки русской культуры, 1997. – С. 519-525.; Яковлева Е.С. Фрагменты русской языковой картины мира. Модели пространства, времени и восприятия. – М.: Гнозис, 1994. – 344 с.; Акбарова З.А. Лисоний онг психолингвистик тадқиқот объекти сифатида // Наманган давлат университети илмий ахборотномаси, 2020. – № 2. – Б. 134-143.; Маджидова Р.У. Антропоцентрик мақолларнинг аксиологик тадқиқи (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида): Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 76 б.; Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент: 2017. – 242 б.

⁸ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors we live by*. – Chicago: Chicago University Press, 1980. – 256 p.; Cohen H. *Handbook of categorization in cognitive science*. – Amsterdam: Elsevier Science, 2005. – 1136 p.; Divjak D. *Extracting prototypes from exemplars. What can corpus data tell us about concept representation?* // *Cognitive Linguistics*, 2013. Vol. 24. Issue 2. – P. 221-274.; Kalyan S. *Similarity in linguistic categorization: The importance of necessary properties* // *Cognitive Linguistics*, 2012. Vol. 23 (3). – P. 539-554.; Brugman C., Lakoff G. *Cognitive topology and lexical networks*. In Steven L. Small, Garrison W.Cottrell & Michael K. Tanenhaus (eds.). *Lexical ambiguity resolution: Perspectives from psycholinguistics, neuropsychology, and artificial intelligence*. – San Mateo, CA: Morgan Kaufmann, 1988. – P. 477-508.; Geeraerts D., Cuyckens H. *The Oxford Handbook of Cognitive Linguistics*. – Oxford: Oxford University Press, 2012. – P. 3-21.; Rosch E. *Human categorization* // *Advances in cross-cultural psychology*. – L., 1975. – P. 23-57.; Taylor J.R. *Linguistic Categorization*. – Oxford: Oxford University Press, 2011. – 326 p.; Болдырев Н. Н. Языковые категории как формат знания // *Вопросы когнитивной лингвистики*, 2006. – № 2. – С. 5-12.; Дзюба Е.В. Лингвокогнитивная категоризация в русском языковом сознании. – Екатеринбург, 2015. – 286 с.; Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // *Вопросы языкознания*. – М.: 1994. – № 4. – С. 17-33.; Кубрякова Е.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики // *Вопросы когнитивной лингвистики*. – М.: 2004. – С. 10-14.; Попова З.Д., Стернин И.А. *Когнитивная лингвистика*. – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. – 314 с.; Степанов Ю.С. *Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования*. – М.: Языки русской культуры, 1997. – 824 с.; Фрумкина Р.М. *Концепт, категория, прототип* // *Лингвистическая и экстралингвистическая семантика: сб. обзоров*. – М.: ИНИОН РАН, 1992. – С. 28-44.; Ashurova D.U. *Cognitive Linguistics*. – T.: VneshInvestProm, 2018. – 160 с.; Галиева М.Р. *Отражение мифолого-религиозного сознания в языковой картине мира: Автореф. докторской диссертации (DSc) по филологическим наукам*. – Фергана, 2019. – 77 с.; Юлдашев А.Г. *Тилда олам ҳақидаги билимлар иккиламчи интерпретациясининг антропоцентрик моҳияти: Филол. фанл. д-ри ... автореф.* – Тошкент, 2022. – 81 б.; Насруллаева Н.З. *Формирование гендерных концептов в английской и узбекской фразеологических картинах мира: Дисс. ... докт. филол. наук (DSc)*. – Ташкент, 2018. – 249 с.

⁹ Вежицкая А. *Язык. Культура. Познание*. – М.: Русские словари, 1996. – 416 с.; Воркачев С.Г. *Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании* // *Филологические науки*, 2001. – № 1. – С. 64-72.; Карасик В.И. *Языковая матрица культуры*. – М.: Гнозис, 2013. – 320 с.; Маслова В.А. *Лингвокультурология*. – М.: Изд. центр Академия, 2007. – 208 с.; Пименова М.В. *Душа и дух: особенности концептуализации*. – Кемерово: Графика, 2004. – 386 с.; Болдырев Н.Н. *Концептуальное пространство когнитивной лингвистики* // *Вопросы когнитивной лингвистики*, 2004. – № 1. – С. 18-37.; Буранов Дж. *Сравнительная типология английского и тюркских языков*. – М.: 1983. – 266 с.; Расулова М.И. *Проблемы лексической категоризации в лингвистике: Дисс. ... докт. филол. наук*. – Ташкент: 1998. – 275 с.; Mamatov A.E. *Zamonaviy linvistika: o‘quv qo‘llanma*. – Toshkent: “Noshir” nashriyoti, 2019. – 168 b.; Сафаров Ш.С. *Когнитив тилшунослик*. – Самарканд: Сангзор, 2006. – 92 б.; Ашурова Д.У. *Развитие когнитивной лингвистики в Узбекистане* // *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 2016. – № 1(3 (60)). – С. 54-60.; Галиева М.Р. *Отражение мифолого-религиозного сознания в языковой картине мира: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук*. – Фергана, 2019. – 77 с.; Юсупов Ў.К. *Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурема атамалари хусусида* // *Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида* // *Илмий амалий конференция материаллари*. – Тошкент, 2011. – Б. 49-56.; Джусупов Н.М. *Лингвокогнитивный аспект исследования символа в художественном тексте: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук*, 2006. – 29 с.; Арустамян Я.Ю. *Когнитивно-прагматические основания художественного перевода: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук*. – Ташкент, 2022. – 82 с.;

tilshunoslik fanlarida o'rganilgan muammolari bo'yicha A.D.Baddley, G.Echterhoff, I.Hacking, G.A.Miller, K.Nelson, P.Nora, J.K.Olick, Tanja E.Bosch, G.A.Bagautdinova, N.G.Bragina, L.M.Bondareva, L.N.Golaydenko, A.N.Dmitrovskaya, R.F.Isxakova, Y.S.Kubryakova, I.A.Kupriyeva, L.M.Nyubina, O.N.Proxorova, L.N.Rebrina, Y.N.Rogacheva, M.G.Sabadashova, T.I.Skorobogatova, O.Y.Suraleva, N.V.Skoromislova, I.V.Tivyayeva, V.V.Turovskiy, O.V.Shatalova, L.I.Yarseva, E.G.G'oziyev, D.Djafarova va boshqalarning ilmiy ishlari tadqiqotimizning asosi hisoblanadi¹⁰.

Mazkur sohada tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramay, biz tanlagan muammo, ya'ni kognitiv fenomen asosida konsept va kategoriyalarni olam manzarasida o'rganish hali o'z yechimini topmagan. Shuning uchun bu masala

Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – 416 с.; Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки, 2001. – № 1. – С. 64-72; Карасик В.И. Языковая матрица культуры. – М.: Гнозис, 2013. – 320 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Изд. центр Академия, 2007. – 208 с.; Пименова М.В. Душа и дух: особенности концептуализации. – Кемерово: Графика, 2004. – 386 с.; Болдырев Н.Н. Концептуальное пространство когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики, 2004. – № 1. – С. 18-37.

¹⁰ Baddley A.D. Working Memory: looking back and looking forward. *Nature reviews. Neuroscience.* – № 4 (10). – P. 152-170.; Echterhoff G. Language and Memory: Social and Cognitive Processes // *Cultural Memory Studies. An International and Interdisciplinary Handbook.* Eds. A.Erl, A.Nünning. – Berlin, N.Y., De Gruyter, 2008. – P. 263-274.; Hacking I. *Memory Science, Memory Politics // Tense past: cultural essays in trauma and memory / P.Antze, M.Lambek (eds.)* – New York, London: Routledge, 1996. – P. 67-89.; Miller G.A. The organization of lexical memory: Are word associations sufficient? // *The pathology of Memory.* – New York, 1969. – P. 223-236.; Nelson K. Self and social functions: Individual autobiographical memory and collective narrative. *Memory*, 11 (2), 2003. – P. 125-136.; Nora P. Les Lieux de memoire // <https://tspace.library.utoronto.ca/citd/holtorf/2.6.html>.; Olick J.K. Between Chaos and Diversity: Is Social Memory Studies a Field? // *International Journal of Politics Culture and Society*, 2009. 22 (2). – P. 249-252.; Tanja E. Bosch. *Memory Studies. A brief concept paper*, 2016. – P. 12.; Багаутдинова Г.А. Человек во фразеологии: антропоцентрический и аксиологический аспекты: Дисс. ... докт. филол. наук. – Казань, 2007. – С. 58-64.; Брагина Н.Г. Память в языке и культуре. – М.: Языки славянских культур, 2007. – 520 с.; Бондарева Л.М. Ретроспективный дискурс как транслятор культурной памяти // *Эволюция и трансформация дискурсов: языковые, филологические и социокультурные аспекты. Сб. материалов науч. конф. с междунар. участием.* – Самара, 2014. – С. 136-142.; Голайденко Л.Н. Прилагательные со значением памяти: воспоминания и их функционирование в художественной прозе // *Вестник Челяб. гос. пед. ун-та*, 2012. – № 8. – С. 205-215.; Дмитриевская А.Н. *Философия памяти // Логический анализ языка. Культурные концепты.* – М.: Наука, 1991. – С. 78-91.; Исхакова Р.Ф. Когнитивно-семантический анализ мнемических глаголов (на материале современного английского языка): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – СПб., 2009. – 18 с.; Кубрякова Е.С. Об одном фрагменте концептуального анализа слова Память // *Логический анализ языка. Культурные концепты.* – М.: Наука, 1991. – С. 85-90.; Куприева И.А. Концептуальные основания формирования значения лексики, номинирующей психические процессы в современном английском дискурсе // *Вестник Томского гос. пед. ун-та.* – Томск, 2013. – № 10 (138). – С. 24-31.; Нюбина Л.М. Мемуарный текст как «культурогенный» феномен // *Известия Смолен. гос. ун-та*, 2008. – № 4. – С. 12-28.; Прохорова О.Н. Ментальные структуры и их репрезентация лексическими средствами в германских и романских языках. – М.: Флинта, 2013. – 332 с.; Ребрина Л.Н. Автобиографическая память как дискурсивный феномен (на материале немецкого языка) // *Вестник Ленинград. гос. ун-та. им. А.С.Пушкина*, 2014. – № 4. – С. 141-152.; Рогачёва Ю.Н. Репрезентация фрейма «память» в современном английском языке (на материале глагольной лексики): Дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2003. – 182 с.; Сабашова М.Г. Лексико-фразеологические способы выражения семантического единства «память/забвение» в русском и английском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2012.; Скоробогатова Т.И., Суралева О.Ю. «Терминоконцепт «Память» в современном лингвокультурном тезаурусе: исследовательские эвристики» // *Актуальные проблемы филологии и педагогической лингвистики*, 2009. – № 11. – С. 50-53.; Скоромылова Н.В. Фразеосемантическое поле психических процессов памяти: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2017. – 176 с.; Тивьяева И.В. Когнитивно-коммуникативная концепция мнемической деятельности: Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – М.: 2018. – 38 с.; Туровский В.В. Память в наивной картине мира: забыть, вспомнить, помнить // *Логический анализ языка. Культурные концепты.* – М., 1991. – С. 91-94.; Шаталова О.В. Репрезентация концепта «память» в текстах русских элегий первой трети XIX века: Дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2005. – 250 с.; Ярцева Л.И. Память в языковой картине мира (на примере французского метафорического словоупотребления) // *Вісник Запорізького державного університету. Філологічні науки*, 2002. – № 1. URL: <http://www.zsu.zp.ua/herald/articles/1959.pdf>.; Фозиев Э.Ф. *Хотира психологияси.* – Тошкент: Университет, 1994. – 39 б.; Djafarova D.I. *Fransuz va o'zbek tillarida tarixiy xotirani ifodalovchi frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlari: Filol. fanlari doktori (DSc) diss.* – Toshkent, 2017. – 280 b.

yangicha yondashuvlarni taqozo etadi. Jumladan, Y.V.Dzyuba lisoniy ongda lingvokognitiv konseptuallashtirish va kategoriyalashtirishni tadqiq qilgan bo'lsa, o'zbek tilshunoslaridan M.R.Galiyeva mifologik-diniy ongning olamning lisoniy manzarasida aks etishini o'rgangan. M.I.Rasulovning ilmiy izlanishlari tilshunoslikda leksik (animativ hamda inanimativ) kategoriyalashtirishning tadqiqiga bag'ishlanganligi bilan xarakterlidir. Xotira nafaqat adabiyotshunoslik, balki boshqa ijtimoiy fanlar kesimida ham o'rganilishini O.V.Perexodseva ham aytib o'tgan. O.V.Shatalova "Xotira" konseptini madaniy konsept sifatida o'rgangan bo'lsa, M.G.Sabadashova "Xotira" konseptini semantik birlik tarzida tadqiq qilgan. Xotira leksik birlik sifatida Y.N.Rogachova, I.V.Tivyayeva, R.F.Ishakova, N.G.Bragina, N.V.Skoromislovalarning ishlarida atroflicha o'rganilgan.

Biroq "Xotira" fenomenining turli xalqlar ilmiy, kasbiy hamda sodda manzarasidagi konseptuallashtirish va kategoriyalashuv jarayoni monografik planda tadqiq qilinmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "Turli tizimli tillarning tipologik va chog'ishtirma xususiyatlari" mavzusi ilmiy-loyihasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillari olami manzarasida "Xotira" fenomenining konseptuallashtirish va kategoriyalashuv jarayonini lingvokognitiv tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

zamonaviy tilshunoslikdagi lingvomadaniy hamda lingvokognitiv tadqiqotlarning asosiy muammolari, yo'nalishlariga; konsept, kategoriya va olam manzarasiga sharh berib, mavjud bo'lgan yondashuvlarni umumlashtirish;

"Xotira" fenomenining konseptuallashtirish hamda kategoriyalashuv jarayonini o'rganishda qo'llaniladigan usul va tamoyillarni aniqlash;

ingliz va o'zbek xalqi olami manzarasida "Xotira" fenomenini chog'ishtirma o'rganish kompleks metodikasini ishlab chiqish;

ingliz va o'zbek olami ilmiy, kasbiy, sodda manzarasida "Xotira" fenomenining konseptuallashtirish darajasini aniqlash;

ingliz va o'zbek olami ilmiy, kasbiy, sodda manzarasida "Xotira" fenomenining kategoriyalashuv jarayonini tahlil qilish;

"Xotira" fenomeni konseptuallashtirish hamda kategoriyalashuvi tadqiqi natijasida o'rganilgan konsept va kognitiv kategoriyaning tipologiyasini aniqlash.

Tadqiqot obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillari olami manzarasida "Xotira" fenomenini lug'atlar, mediamatnlar va so'rovnomalar materiallari asosida konseptuallashtirish va kategoriyalashuv jarayonlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillari olami manzarasida "Xotira" fenomenining lingvokognitiv tadqiqi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida ingliz va o'zbek olami lisoniy manzarasida "Xotira" fenomenini o'rganishda statistik tahlil, kognitiv model tuzish, identifikatsiya, tasvirlash, chog'ishtirma, konseptual tahlil, kross-madaniy tahlil, assotsiativ eksperiment metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Xotira fenomen sifatida lingvokognitiv va lingvomadaniy yondhashuv yordamida ingliz hamda o'zbek olami ilmiy, kasbiy hamda sodda manzaralarida aks etishi asoslangan;

“Xotira” konseptining noregulyativ, mavhum, metaprofessional, ijtimoiy-madaniy, mentefakt, aksiologik, universal hamda lingvomadaniy konsept turlariga kirishi aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillari olami manzarasida “Xotira” kognitiv kategoriyasining aniq chegaralanmagan, ochiq, ideal kategoriya turlariga bo‘linishi hamda kognitiv kategoriyaning subordinat, bazaviy, superordinat sarhadlarga bo‘linishi dalillangan;

“Xotira” konsepti hamda kognitiv kategoriyasining ingliz va o'zbek olami ilmiy manzarasida ijtimoiy-ma'naviy hamda etnik omillarning ta'siri kam ekanligi aniqlangan, olamning kasbiy manzarasiga ijtimoiy va etnik omillarining ta'siri mavjudligi, olamning sodda manzarasida esa ijtimoiy-ma'naviy hamda etnik omillar ta'siri yaqqol aks etishi isbotlangan;

ingliz va o'zbek olami manzarasidagi “Xotira” fenomenining konseptual hamda kategorial xususiyatlarini aniqlash uchun bosqichma-bosqich metodika ishlab chiqilgan, boshqa shu kabi mavhum fenomenlarni o'rganishda ushbu metodika qo'llanilishi mumkinligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqotda amalga oshirilgan tahlil va xulosalar “Xotira” fenomenini lingvokognitiv konseptuallashtirish hamda kategoriyalashtirish hodisasini o'rganish asosida olam manzarasida ancha keng doiradagi konsept va kategoriyalarni o'rganish imkonini beradi;

“Xotira” konsepti hamda kognitiv kategoriyasini ingliz va o'zbek olami manzarasini antropotsentrik yo'nalishda o'rganishga asoslangan tipologik tasnif kognitiv tilshunoslik hamda lingvomadaniyatshunoslik birliklarini tizimlashtirishga hissa qo'shadi;

konsept va kategoriyalar turli olam manzaralarida aks etishi tadqiqi doirasida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar kognitolog tilshunoslar uchun amaliy ahamiyatga ega;

ilmiy tadqiqot davomida ishlab chiqilgan “Xotira” lingvokognitiv fenomenini o'rganish uslubi, “Xotira” konsepti tuzilishini modellashtirish bosqichlarini o'z ichiga oladi va keyinchalik kategorial belgilarni aniqlashga imkon beradi. Ushbu usul milliy til manzarasining turli ko'rinishlaridagi boshqa mavhum konsept va kategoriyalarni o'rganishda amalga oshirish bosqichlarining asoslanganligi chog'ishtirma tilshunoslik hamda lingvistik tipologiyaga oid ilmiy tadqiqotlarga muayyan hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi quyidagi omillar bilan izohlanadi: kognitiv tilshunoslik hamda lingvomadaniyatshunoslik maktabi nazariyasiga asoslangani, nazariy ma'lumotlar va daliliy misollarni qo'llashda ishonchli ilmiy manbalardan foydalanilgani, ilmiy tahlillar tavsiflash, tasniflash, taqsimlash hamda qiyoslash kabi usullar yordamida asoslangani, dissertatsiya natijalariga oid nazariy va amaliy xulosalarning

amaliyotga tatbiq etilgani, olingan natijalarni vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati kognitiv tilshunoslik hamda lingvomadaniyatshunoslik sohaslarida konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish muammosi rivojiga qo‘shgan hissasi, to‘plangan materiallardan zamonaviy tilshunoslik bo‘limlaridan kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, psixolingvistika kabi sohalarda ilmiy adabiyotlar yaratish hamda kelajakda ingliz va o‘zbek tillari semantikasi sohasida, shuningdek, lingvokognitiv tadqiqotlar olib borish, sohaga oid monografiyalar, ilmiy ishlanmalarni yaratishda ularning takomillashuviga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalardan maxsus kurslar ishlab chiqishda, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Tilshunoslik” fanlariga oid darslik, o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda, dissertatsiya materiallaridan “Matn tahlili”, “Nazariy tilshunoslik”, “Kognitiv tilshunoslik”, “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Psixolingvistika”, “Nutq madaniyati”, “Leksikografiya asoslari” kabi fanlar bo‘yicha talaba, magistrant va doktorantlar uchun mashg‘ulotlarda foydalanish imkoniyati mavjud. Turli lingvomadaniyatlar kategoriyalashtirish jarayoni natijalaridan madaniyatlararo muloqotni taqozo etadigan kurslar, turli ilmiy-amaliy anjuman va seminarlarni tashkil etishda; sohaga oid ilmiy va o‘quv adabiyotlar yaratishda, ingliz va o‘zbek tillarini o‘rgatishga mo‘ljallangan dastur hamda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillari olami manzarasida “Xotira” fenomeni tadqiqiga doir ilmiy natijalar asosida:

“Xotira” konsepti va kategoriyasi tadqiqi natijasida olamning lisoniy manzarasi variantlari, ijtimoiy-ma’naviy hamda etnik o‘ziga xoslik omillari jihatidan bir-biridan turli darajada farqlanishi hamda “Xotira” kategoriyasining ingliz va o‘zbek tillari olamining lisoniy manzarasi (ilmiy varianti)da sanab o‘tilgan omillarning ta’siri juda kam ekanligi yuzasidan keltririlgan materiallarga doir xulosalardan “O‘zbekiston” teleradiokanali” davlat muassasasi tarkibidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida namoyish etilgan “Taqdimot” nomli ko‘rsatuv sahifasi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 31-oktyabrdagi 01-44-374-son ma’lumotnomasi). Natijada, “Xotira” kategoriyasi olamning lisoniy manzarasining turli variantlarida g‘oyaviy, ijtimoiy hamda etno o‘ziga xoslik omillari jihatidan bir-biridan turli darajada farq qilishi hamda “Xotira” kategoriyasi olamning lisoniy manzarasi (ilmiy varianti)da yuqorida sanab o‘tilgan omillar ta’siri juda kamligi, olamning lisoniy manzarasi (professional variantida) ijtimoiy hamda etno o‘ziga xos xususiyatlar ta’siri mavjudligi olib borilgan tadqiqotning natijalarida keltirilgan ma’lumotlar borasidagi bahs munozaralarga oydinlik kiritilgan;

mental antroposferani subsferasi sifatida “Xotira” fenomenining konsept hamda kategoriya elementlari har ikkala (ingliz va o‘zbek) xalqlari olamining ilmiy, professional hamda sodda manazaralarida aks etishida umumiy va o‘ziga xos

xususiyatlari aniqlanganligiga oid xulosalardan Erasmus+ dasturining Project № 598340-EPP-1-2018-1ES-EPPKA2-CBHE-JP University Cooperation Framework for Knowledge Transfer in Central Asia China (UNICAC) grant loyihasida foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetining 2024-yil 12-noyabrdagi 04/11-10411-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu fenomenning kontsept va kategoriya elementlari chog‘ishtiralayotgan tillar kesimida professional, ilmiy hamda sodda manzaralarida universal va o‘ziga xos xususiyatlaridan to‘g‘ri qo‘llash sifatini oshirishga imkon yaratildi;

ajratib olingan metodologik tamoyillar, tadqiqot davomida tizimlashtirilgan uslubiy majmua va lisoniy ong tasarrufidagi kategoriyalarni o‘rganish uchun rivojlantirilgan metodika asosida lingvokognitiv konseptuallashtirish hamda kategoriyalashtirish tadqiqotlariga oid xulosalardan “Xalqaro Rivojlantirish Assotsiatsiyasi” ishtirokidagi “Oliy ta‘lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash” loyihasi doirasida qo‘llanilgan (Buxoro muhandislik-texnologiya institutining 2024-yil 8-noyabrdagi 4353-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek tillari olami lisoniy manzarasi tadqiqi asosida ajratib olingan metodologik tamoyillar, tadqiqot davomida tizimlashtirilgan uslubiy majmua va lisoniy ong tasarrufidagi kategoriyalarni o‘rganish uchun rivojlantirilgan metodika asosida lingvokognitiv konseptuallashtirish hamda kategoriyalashtirish bo‘yicha ma‘lumotlar muhim manba sifatida xizmat qilgan;

“Xotira” fenomeni kategorizatsiyasi tahlili asosida ingliz va o‘zbek tillari olamining lisoniy manzarasida o‘ziga xos aks etuvchi kategoriya turlari hamda tiplari dalillanganligiga oid ilmiy xulosalardan A-1-85-sonli “Ta‘limda menejment va marketingning ijtimoiy psixologik jihatlarini ishlab chiqish” loyihasi foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetining 2024-yil 12-noyabrdagi 04/11-10412-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, konsept va kategoriya elementlari orqali ingliz hamda o‘zbek xalqalri kognitiv ongida mental antroposferani lisoniy manzara turlaridan ilmiy, kasbga oid va sodda variantlari misolida o‘rganilib, ularning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarining aniqlanganligi o‘quvchilarning ijtimoiy psixologik jihatlarini o‘rganishda amaliy yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 7 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma‘ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta, jumladan, respublika nashrlarida 10 ta va xorijiy jurnallarda 3 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 251 betni tashkil qilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning ahamiyati va dolzarbligi, uning respublika fan va texnologiyalarning ustivor yo‘nalishlari bilan muvofiqligi asoslangan, tadqiqot mavzusi bo‘yicha chet el va mamlakat adabiyotlarining sharhi keltirib o‘tilgan, ishning maqsadi va vazifalari, uning obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ochib berilgan, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalar ishonchligi asoslab berilgan, dissertatsiya ishining tadbiri qilingani, chop ettirilgani, aprotatsiyasi va tuzilmasi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob **“Tilshunoslikda konseptuallashtirish hamda kategoriyalashtirish hodisalarining nazariy asoslari”** deb nomlanib, unda tilni o‘rganishda kognitiv tilshunoslik hamda lingvomadaniyatshunoslikning tutgan o‘rni, konsept va kategoriya tushunchasi, ularning zamonaviy fanda aks etishi va tutgan o‘rni hamda olamning lisoniy manzarasi turlari o‘rganilishi haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

XX asr tilshunosligida antropotsentrik paradigma asosiy paradigma sifatida o‘rin egallab, fenomenologiya fani qarashlari nuqtayi nazaridan tadqiqotlarga asos vazifasini o‘taydi. Fenomenologiya fanida so‘zni fenomen sifatida talqin qilishga urg‘u beriladi. D.N.Razeyev hodisa va fenomen o‘rtasidagi farqni o‘rganar ekan, “...borliqdagi predmetni idrok qilish orqali hodisa fenomenga aylanadi”¹¹, – deydi. N.V.Motroshilovanning fikricha, hodisa ongning mantiqiy bosqichgacha bo‘lgan davri hisoblansa, fenomen tajriba natijasida vujudga keladi¹². Demak, “Критика чистого разума” asarida I.Kant ong kategoriyasi funksiyalari va mazmunini tahlil qilishda fenomenni terminologik apparatning markaziga joylashtiradi. I.Kant ta‘limotida fenomen bilish kategoriyalariga asoslangan hissiy tajribadan kelib chiqadigan hodisadir”¹³. Bizningcha, bu yondashuv tilni oddiy vosita sifatida qabul qilishga o‘rganib qolgan tushunchamizni asosli ravishda shubha ostiga oladi. Buning o‘rniga, fenomenologiya bizni so‘zning o‘ziga xos tajribasiga tayanishga undaydi, uni ongimizga ta‘sir ko‘rsatadigan va dunyoni idrok etishimizni shakllantiruvchi hodisa sifatida ko‘rib chiqishni taklif etadi.

Kognitiv tilshunoslikda metodologik bahslar mavjudligi sohaga doir nazariy-metodologik tadqiqotlarga ehtiyojni oshiradi¹⁴. Kognitiv tilshunoslik psixologiyadagi tushuncha va konsept birliklari bilan ish ko‘radi¹⁵. Kognitiv tilshunoslik konseptlarni ma‘no va obraz asosi sifatida til materiali hamda o‘z usullaridan foydalanib o‘rganadi. Lingvokulturologik yondashuv lingvokognitiv yondashuv bilan bir qatorda konseptlarni madaniyat birligi, obrazli va stilistik hodisa

¹¹ Разеев Д.Н. «Явление» и «феномен» в теоретической философии Канта // Мысль: ежегодник Петербургской философской ассоциации. – Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 1997. – 206 с.

¹² Мотрошилова Н.В. «Феномен», «явление», «гештальт»: терминологические и содержательные проблемы «Феноменологии духа» Гегеля в соотнесении с философией Канта // «Феноменология духа» Гегеля в контексте современного гегелеведения. – М.: Канон, 2010. – С. 73-101.

¹³ Гуссерль Э. Идеи к чистой феноменологии и феноменологической философии. Книга первая. Общее введение в чистую феноменологию / пер. с нем. А.В.Михайлова. – М.: Академический проект, 2009. – 128 с.

¹⁴ Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультурега атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент: 2011. – Б. 19.

¹⁵ Абдуазизов А.А. Тилшунослик назариясига кириш. – Тошкент: Шарқ, 2010. – 144 б.

sifatida ko‘rib chiqish orqali milliy konseptosferani o‘rganish uchun muhimdir¹⁶. Ushbu yo‘nalishda izlanishlar olib borayotgan olimlar qatoriga Yu.S.Stepanov, V.I.Karasik, V.A.Maslova, D.U.Ashurova, A.E.Mamatov, M.R.Galiyeva va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Konseptlar, ularning tuzilishi va konseptosferalarning o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq muammolar tadqiqotlarning muhim mavzulari hisoblanadi.

Hozirda konsept tipologiyasi borasida turlicha qarashlar mavjud. Xususan, konseptlar mental birlik sifatida *individual, guruhga oid, universal* konsept turlariga ajratiladi. “Xotira” konsepti ushbu tipologiyaga mos holda *universal konsept* sirasiga kiradi. Shuningdek, konseptlarni strukturasi bo‘yicha *tasavvurlar, sxemalar, tushunchalar* hamda *freymlar* shaklida namoyon bo‘ladi. Konseptning adabiy ifodasi bo‘yicha *leksema, frazeologizm, so‘z birikmasi, sintaktik, matn* va *matnlar to‘plami* turlari farqlanadi¹⁷.

Konseptlar inson bilimi, tajribasi va dunyoqarashi bilan o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘lib, “Xotira” konsepti ham aniq strukturaga ega bo‘lmagan konsept hisoblanadi. O‘zbek olimasi D.U.Ashurovaning ta’rifiga muvofiq konsept bu mantiqiy va milliy xususiyatga ega hodisa. Olimaning fikricha, konsept asosida ma’lum bir obyekt yoki predmet haqidagi bilim yotsa, uni leksika, frazeologiya, paremiologiya kabi til vositalarida ifodalash mumkin. D.U.Ashurova “har qanday tushuncha ham konsept sifatida talqin qilina olmaydi”, deydi. Milliy madaniyat va borliqni bilishda salmoqli o‘rin egallagan elementlarga konsept deb atalishga haqlidir. Ushbu ta’rifni keltirishda olima konseptning milliy madaniy va mantiqiy xususiyatlariga urg‘u beradi¹⁸. O‘zbek tilshunoslaridan biri M.R.Galiyeva konseptning xususiyatlarini, uning kognitiv-konseptual belgilarini talqin qilish davomida konseptning aniq bir elementi birinchi o‘ringa chiqishini ta’kidlaydi¹⁹. Demak, konsept madaniy, lingvomadaniy, kognitiv, emosional, ilmiy konseptlarga bo‘linishi mumkin.

Navbatdagi masala – kategoriya va kategoriyalashtirishni o‘rganish. Aristotel birinchi bo‘lib kategoriya tushunchasiga e’tibor qaratgan. XX asrda kategoriya kognitiv fanning markaziy atamasiga aylandi, bunda Eleanor Rosh va boshqa psixologlar kategoriyalashtirishning kognitiv nazariyasini ishlab chiqdilar, unga ko‘ra inson prototiplarni yaratib, obyektlarni umumiy belgilariga ko‘ra guruhlaydi. Bu nazariya psixologiyada bilish, xotira va nutqni o‘rganish uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda.

¹⁶ Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования. – М.: Языки русской культуры, 1997. – 824 с.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – 390 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Изд. центр “Академия”, 2007. – 208 с.; Ашурова Д.У. Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики // Филологиянинг долзарб муаммолари: Маъруза тезислари. – Тошкент, 2008. – Б. 11-12.; Mamatov A.E. Zamonaviy linvistika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Noshir, 2019. – 168 b.; Галиева М.Р. Отражение мифолого-религиозного сознания в языковой картине мира: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Фергана, 2019. – 77 с.

¹⁷ Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж: Изд-во Воронежского Ун-та, 1999. – С. 17-21.

¹⁸ Ашурова Д.У. Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики // Филологиянинг долзарб муаммолари: Маъруза тезислари. – Тошкент, 2008. – Б. 11-12.

¹⁹ Галиева М.Р. Вербализация концептосферы Word/Суз/Слово в английской, узбекской, и русской языковых картинах мира: Автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Ташкент, 2010. –11 с.

Kategoriyalashtirish jarayoni bizga “borliqda anglay oladigan voqeliklar haqidagi bilimlarni tizimlashtirishga yordam beradi”²⁰. Kognitiv tilshunoslikda, strukturalizmdan farqli o‘laroq, kategoriyalashtirish muammosi kognitiv psixologiya nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi. Agar strukturalistlar kategoriyalarni inson tomonidan muloqot uchun qo‘llanadigan tilning boshlang‘ich nuqtasi deb belgilagan bo‘lsalar, kognitivistlar esa, aksincha, kategoriyalarni inson tomonidan ma‘lumotni qayta ishlash natijasi deb hisoblaydilar. Shu bilan birga, kognitiv tilshunoslik, strukturalizmdan farqli ravishda, kategoriyalarni insonning shaxsiy tajribasidan ajratmaydi. Sh.Safarovning fikricha, kategoriya – bu dinamik jarayon bo‘lib, o‘zini semantik hodisa sifatida namoyon etadi va kundalik tajriba doirasida ham, shuningdek dunyoning ilmiy tasavvuri rivojlanishi kontekstida ham kognitiv talqinni talab etadi. Tadqiqotchilarning fikricha, kognitiv semantikaning asosiy vazifasi – ma‘no tuzilishini aks ettiruvchi mental modellarni aniqlash va tasvirlash, shuningdek, ushbu modellarning real mavjudligi va imkoniyatlarini ko‘rsatishdir”²¹.

Aksariyat tilshunoslarning fikricha, olam manzarasi kesimida konseptualashtirish va kategoriyalashtirish jarayonini tadqiq qilish til sistemasidagi o‘xshash hamda farqli jihatlarni aniqlashga yordam beradi. “Konseptual olam manzarasi” obyekt strukturasi ifodalasa, “olamning lisoniy manzarasi” dunyoqarashning shakllanishida tilning roli muhimligiga ishora qiladi”²². Bu kabi qiyoslashning uyg‘unlashuvi konseptlarning lisoniy olamining asosiy birliklarida ham namoyon bo‘ladi. Dastlab tabiat qonunlarini aks ettiruvchi “fizik olam manzarasi”, keyinchalik tilshunoslik, semantika va madaniyatshunoslik fan sohalari predmeti sifatida o‘rganila boshlandi. Shuni ta’kidlash lozimki, olamning lisoniy manzarasi turli millat va madaniyat vakillari ongida borliqni turlicha anglashini ifodalaydi.

O‘zbek tilshunosligida “olam manzarasi” tushunchasi tadqiqi tobora kengaymoqda. Vatandosh olimimiz M.Ergasheva olam manzarasi haqida quyidagicha fikr bergan: “Inson o‘zini qurshab turgan olamni turli usullar yordamida turlicha aks ettiradi. Natijada jamiyat ongida olamning turlicha manzarasi paydo bo‘ladi”. Hamda olim olam manzarasini besh turga bo‘ladi: a) *olamning diniy manzarasi*; b) *olamning afsonaviy manzarasi*; c) *olamning badiiy manzarasi*; d) *olamning lisoniy manzarasi*; e) *olamning ilmiy manzarasi*²³. Albatta, bu tipologiya kognitivistika tadqiq doirasi uchun yetarli bo‘lmisligi mumkin.

Olam manzarasining yana bir turi olamning milliy manzarasi bo‘lib, “har bir xalq dunyoni o‘zgacha ko‘radi va uning dunyoqarashi ham bir-biridan batamom farq qiladi” deb ta’kidlaydi R.X.Shirinova. Shunday ekan, olamning milliy manzarasi bu faqatgina bitta mentalitetga xos manzaradir, shuning uchun ham bu tushuncha “olamning milliy manzarasi” deb ataladi” degan g‘oyani ilgari suradi”²⁴. Yana bir

²⁰ Болдырев Н. Н. Когнитивная основа лексических категорий и их интерпретирующий потенциал // Вопросы когнитивной лингвистики, 2013. – № 2. – С. 5-12.

²¹ Сафаров Ш. Семантика. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2013. – Б. 239.

²² Морковкин В.В., Морковкина А.В. Русские агнонимы. – М.: 1996. –52 с.

²³ Эргашова М.В. Ўзбек тилида локум ва локализация муносабати: Филол.фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 21 б.

²⁴ Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадий таржимада қайта яратилиши: Филол.фанлари доктори (DSc) автореф. – Тошкент, 2017. – 50 б.

o‘zbek olimasi R.U.Madjidova o‘z doktorlik dissertatsiyasida “Olamning lisoniy manzarasi juda kop‘ turli xil konseptlardan iborat bo‘lib, uning asosiylaridan biri insonning o‘zidir, u olam haqidagi barcha bilimlarni til vositasida saqlaydi, qayta ishlaydi va avloddan avlodga yetkazadi” deb o‘rinli fikr bildirgan²⁵.

Dissertatsion ishimizda “Xotira” fenomenini ingliz va o‘zbek olamining ilmiy, kasbiy hamda sodda manzaralarida o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan. Olamning kasbiy manzarasini ba’zi olimlar ilmiy manzaraning bir qismi deb bilishsa, boshqalari mustaqil olam manzarasi sifatida ta’riflashadi. Biz esa E.V.Dzyuba taklif etgan ta’rifga binoan olamning kasbiy manzarasini ilmiy va sodda olam manzaralari o‘rtasidagi oraliq bo‘g‘in sifatida tadqiq etganmiz. Hozirda tilshunoslikda “olamning kasbiy manzarasi” tushunchasi borliqni kasbga asoslangan holda bilish vositasi sifatida ko‘plab ilmiy ishlarda talqin qilinishi boshlangan. Bizning xulosamiz bo‘yicha, olamning kasbiy manzarasi olamning ilmiy manzarasidan o‘zining kelib chiqishi, tizimlashtirilganligi, muayyan bir kasb sohasi doirasidagi chegaralar va qonun-qoidalari bilan farqlanadi. Olamning kasbiy manzarasining turlari ushbu ishda olamning leksikografik, media manzaralari orqali taqdim etilgan bo‘lib, ularga murojaat qilish ulardagi “Xotira” fenomenining ifodalanishi bilan bog‘liqdir. Uning strukturaviy va mazmuniy o‘ziga xosligi kengroq ma’noda anglanadi.

Olam manzarasi turlari inson o‘zini bilishi, borliq va madaniyatning tafakkurga ta’sirini anglashida yordam beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Xotira” fenomenini o‘rganishda konseptuallashtirish va kategoriyalashtirishning o‘rni**” deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish jarayoni, lingvokognitiv konseptuallashtirish va kategoriyalashtirishning metodologik asoslari hamda tipologiyasi, “Xotira” fenomenining olam manzarasida konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish hodisalarining nazariy tadqiqi haqida fikrlar, misollar keltirilgan.

Lingvokognitiv yondashuv doirasida til ma’lumotlari va hodisalari kognitiv jarayonlar – konseptuallashtirish hamda kategoriyalashtirish prizmasi orqali o‘rganiladi. Bu jarayonlar bitta madaniyat doirasida kechadi va dunyo haqidagi ma’lumotlar hamda u haqidagi bilimlarni kategoriyalarga birlashtirilgan konseptlar ko‘rinishida saqlashdan iborat²⁶. O‘zbek olimalaridan M.I.Rasulova doktorlik dissertatsiyasida kategoriyalashtirish hodisasini leksik va grammatik sathlarda tadqiq qilgan bo‘lsa,²⁷ yana bir o‘zbek olimi J.J.Bo‘ronov ushbu hodisani ifodalash uchun sathlararo kategoriyalar tushunchasini kiritgan²⁸. A.Yuldashev esa konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish jarayoniga ta’sir etuvchi lisoniy hamda

²⁵ Маджидова Р.У. Антропоцентрик мақолларнинг аксиологик тадқиқи (ўзбек ва рус тиллари материаллари асосида): Филол. фанл. д-ри ... автореф. – Тошкент, 2020. – 76 б.; Ширинова Р.Х. Олам миллий манзарасининг бадиий таржимада қайта яратилиши: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент: 2017. – Б. 14.

²⁶ Болдырев Н. Н. Когнитивная семантика: курс лекций по английской филологии: учеб. пособ. 2-е изд., стер. – Тамбов: Изд.-во ТГУ, 2001. – 58 с.

²⁷ Расулова М.И. Проблемы лексической категоризации в лингвистике: Дисс. док. филол. наук. – Т., 1998. – 275 с.

²⁸ Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – М.: 1983. – 266 с.

когнитив jarayonlarda inson o'zni beqiyosligi haqida o'z maqolasida yozgan²⁹.

Dolzarblik konsept va kategoriya, konsept va ma'no, konsept va konseptual maydon hamda boshqalarni bir-biridan ajratishda namoyon bo'lmoqda. Navbatdagi vazifamiz "konsept" hamda "kategoriya" tushunchalari tarqlinini o'rganib, quyidagi ta'riflardan xulosa yasashdir:

a) konsept va kategoriya turlicha tartibning ko'rinishidir. Konsept deganda madaniy ahamiyatga ega aqliy faoliyat va falsafiy bilish asosi bilan bog'liq hodisa tushuniladi. Y.S.Kubryakova, Yu.G.Pankrats va V.Z.Dem'yankovlarning «Краткий словарь когнитивных терминов» lug'atida berilgan ta'rifga binoan konsept ideal mavhum birliklar, ma'nolar sifatida ta'riflanadi. Kategoriya ham aqliy faoliyat bo'lishi bilan birga konsept kabi birlik emas, balki toifa, tajriba bo'limi, ko'plab obyektlar majmuasidir. Kategoriya obyektlari xarakterli hisoblangan belgilar asosida yig'indi sifatida yoki obyektlarning prototipga yaqin turishi bilan hamda L.Vitgenshteyn nazariyasiga binoan "oilaviy o'xshashlik" asosida birlashadi;

b) konsept va kategoriya o'xshash tushunchalardir. Yuqorida aytilganidek, ushbu tushunchalarni bir-biridan farqlashga intilish turli prototipik effektlarga olib keladi. Bunda biror bir unsur kategoriyaga ko'proq o'xshaydi, ba'zilar esa konseptga yaqinroq turadi. A.P.Babushkin, N.N.Boldirev, Z.D.Popova, I.A.Sterninlarning ta'kidlashicha prototiplar ba'zida konsept turiga, ba'zan kategoriyaga kiritiladi³⁰;

c) konsept va kategoriya o'zaro kesishadigan tushunchalardir.

Konsept va kategoriya umuman farq qiladigan tushunchalar emas, chunki shu ikki hodisa mental hodisadir. Ularning farqi ekstensionalning mavjud yoki mavjud emasligi bilan belgilanadi. Kategoriya ekstensionalga ega, konsept esa yo'q. Ikkinchidan intensionalning mavjud yoki mavjud emasligi bilan farq qiladi. Konsept hamda kategoriyaning intensionali mental tasavvurning butunligi jihatidan farq qiladi. Masalan, MEVA konseptini eshitganda inson daraxt yoki boshqa o'simliklar hosilini ko'z oldiga keltiradi. MEVA kognitiv kategoriyasi intensionali o'zida "daraxtda o'suvchi o'simlik", "ba'zi daraxt va butalarning hosili", "yeyishga yaroqli meva", "ho'l meva", "quruq meva" va boshqa shunga o'xshash belgilarga bo'linadi. Konsept va kategoriya intensionali tasvirlanayotgan obyektning ikki xil izohi, ya'ni konseptual va kategorial mohiyati haqida tushuncha beradi.

Lingvokognitiv konseptualashtirish hamda kategoriyalashtirishni o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlarni nazariy va metodologik nuqtayi nazardan o'rganganda ma'lum bir ilmiy qarashlar hamda tamoyillarni ajratib olish lozim.

Biz ushbu tadqiqotimizda, asosan, N.N.Boldyrev hamda E.V.Dzyubalarning ishlarida olg'a surilgan kognitiv tilshunoslikda fundamental asosga ega bo'lgan quyidagi tamoyil va farazlar asosida tadqiqotni olib bordik: a) tilni qo'llashda insonning asosiy o'rin tutishi borasidagi antropotsentrizm tamoyili; b) tilni kognitiv

²⁹ Юлдашев А.Г. Тилнинг интерпретация қилиш моҳияти ҳақида // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – Т., 2021. – № 6 (41). – Б. 10.

³⁰ Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка, их личностная и национальная специфика: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Воронеж. 1998. – 41 с.; Н. Н. Болдырев [и др.] Когнитивная семантика: (Курс лекций по англ. филологии). Учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по специальности "Зарубеж. Филология"; М-во образования Рос. Федерации. – Тамбов: Изд-во ТГУ, 2000. – 123 с.; Попова З.Д., Стернин И.А. Язык и национальная картина мира. – Воронеж, 2005. – 101 с.

tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganishda turli fan sohalari yutuqlaridan foydalanuvchi tadqiqotning fanlararo kesimida qo'llanilishi tamoyili; c) insonning boshqa bilish qobiliyatlari bilan bir qatorda tilni kognitiv qobiliyat sifatida tushunish tamoyili; d) til birliklari ma'nosining ko'psathlilikini o'rganuvchi tamoyil; e) lisoniy konseptuallashtirish hamda kategoriyalashtirish jarayonini sathlarga ajratish tamoyili.

O'rganilayotgan "Xotira" konsepti lingvomadaniy, kognitiv konseptlar sirasiga kirishi bilan birga konseptning *universal, noregulyativ, mavhum, metaprofessional, ijtimoiy-madaniy, mentefakt, aksiologik, terminokonsept* kabi konsept turlarida aks etadi. "Xotira" konseptini sxema deb oladigan bo'lsak, bu freym yoki skriptga nisbatan mavhumroq va ko'proq umumiy struktura sifatida gavdalanadi. Bunda xotira qanday ishlashi haqidagi bilimimizni mujassamlashtiruvchi kognitiv model sifatida aks etadi. Freym va sxema xotiraning aniq bir vaziyat yoki obyektini, harakatlar ketma-ketligini ifodalasa, "Xotira" konsept-sxemasi xotira bilan bog'liq ko'pgina freym va skriptlarni o'z ichiga olib, umumiy konseptual xaritani taqdim etadi. Ishimizda tadqiq qilinayotgan "Xotira" konsept-sxemasining asosiy elementlari sifatida *xotira funksiyasi, xotirada axborotni saqlash, xotiradan o'chirish, unutish, xotira turlari, xotirani yahshilovchi, xotirani pasaytiruvchi omillar, xotira bilan bog'liq kasallik, marosim va urf-odatlarni ta'kidlashimiz* lozim.

Kategoriya tipologiyasini o'rganishda esa Aristotelning aniq chegaralarga ega kategoriyalarning mavjudligi haqidagi nazariyasini inkor qilib bo'lmaydi, chunki aniq chegarali kategoriyalarsiz fan rivojlanmaydi. Barcha aniq fanlar, masalan, fizika, matematika falsafa va boshqa fan vakillari aynan shu turdagi kategoriyalar bilan ish ko'rishadi. Bundan tashqari shuni ta'kidlash lozimki, aniq chegaraga ega kategoriyalar qarama-qarshiliklarni taqozo etishi mumkin. Bu kabi kategoriya a'zolari oppozitsiya singari turli qutblardan o'rin oladi. Masalan, "Xotira" kognitiv kategoriyasi *eslash va unutish* kabi oppozitsiyalarga ajratiladi. Biroq shunday kategoriyalar borki, ular oppozitsiyaga asoslanmaydi. Masalan, HAYVON, O'SIMLIK va boshqa shu kabi kategoriyalar.

Kategoriya strukturasi *ochiq va yopiq* bo'lishi mumkin. Yopiq strukturali kategoriyalar ikki a'zoli kategoriyalar (FARZAND – o'g'il va qiz), uch a'zoli kategoriyalar (SUV HOLATI – muz – suyuqlik – bug'), to'rt a'zoli kategoriyalar (KUN VAQTLARI – ertalab – kunduz – oqshom – tun) va shunga o'xshash boshqa kategoriyalar kiradi. Ochiq strukturali kategoriyalar odatda ko'plab a'zolarga ega bo'ladi va subkategoriyadagi a'zolar soni turli omillar ta'sirida o'zgarib borishi mumkin. Ilm texnologiyalarining rivojlanishi natijasida yangi kategoriya a'zolari paydo bo'lishi hamda yo'qolib ketishi mumkin. Masalan, 2019-yildagi koronavirus pandemiyasi ta'sirida butun dunyoda TA'LIM SOHASI kognitiv kategoriyasi a'zolari qatoriga "ZOOM" platformasidagi ta'lim turi kiritildi. Demak, TA'LIM SOHASI kognitiv kategoriyasi ochiq strukturali kategoriyalar qatoriga kiritiladi. Xuddi shunday, ishimizning obyekti hisoblangan "XOTIRA" kognitiv kategoriyasi a'zolari qatoridan ham 2019-yildagi koronavirus pandemiyasi davrida XOTIRANI PASAYTIRUVCHI KASALLIK kategoriya a'zosi joy oldi.

Kategoriya strukturasi yana olamning manzarasining turlariga qarab ham farq qiladi: olamning ilmiy manzarasida kategoriyalar strukturasi tartibli bo‘lib, barcha a‘zolar tenghuquqli sanaladi. Masalan, *tarvuz mevasi* oddiy insonlar tomonidan MEVA kognitiv kategoriyasi sirasiga kiritiladi, biologiya nuqtai nazaridan esa u REZAVOR o‘simliklar sinfiga kiradi. Kategoriyalar tipologiyasida alohida o‘rinda real borliqqa tegishliligi bo‘yicha farqlanadigan kategoriya turlari mavjud. Bunda predmet olamiga tegishli bo‘lmagan *ideal kategoriyalar* (ZEHN, MA’NAVIYAT, XOTIRA va b.) hamda real borliq bilan bog‘liq *konkret kategoriyalar* (QURILISH MATERIALLARI, MUSIQA ASBOBLARI va b.). Noaniq chegaralarga ega kategoriyalarni olimlar gradatsiyalangan strukturaga ega kategoriya turlarini taklif qilishgan. Gradatsiya turiga qarab, kategoriyalar ikki xil bo‘ladi: *tashqi gradatsiya* va *ichki gradatsiyali kategoriyalar*. *Tashqi gradatsiyalangan kategoriyalar* inson psixologiyasiga bog‘liq holda faoliyat olib borsa, *ichki gradatsiyalangan kategoriyalar* ontologik yoki bilishga asoslangan faoliyatga tayanadi.

Yuqorida keltirilgan kategoriyalarning tasnifini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Struktural tasnifga ko‘ra *chegaralangan yoki chegaralanmagan, ochiq va yopiq, qat‘iy yadroga ega* hamda *zaif strukturaga ega* kategoriya turlari;
2. Struktur-semantik tasnifga ko‘ra *bir-biriga zid bo‘lgan* va *bunday xususiyatga ega bo‘lmagan, ichki va tashqi gradatsiyaga ega* kategoriya turlari;
3. Semantik-grammatik tasnifga ko‘ra *ideal va konkret, yig‘ma va taksonomik* kategoriya turlari;
4. Aksiologik tasnifga ko‘ra *o‘zgaruvchan kategoriya, muqim kategoriya* turlari.

Navbatdagi masala ishimiz o‘zagi hisoblangan “Xotira” fenomenining turli fan sohalarida tutgan o‘rni va mavqeyini tahlil qilishga mo‘ljallangan. Hozirda “xotira” termini turli kashfiyotlar sohasiga kiritilgan. Xotirani sotsiolog, antropolog, tarixchi, semiotik, faylasuf, biolog, adabiyotshunos va hatto kompyuterdan foydalanuvchilar qo‘llashadi. Xotira terminining birikmalari miqdori ham ko‘payib bormoqda: *jamoat xotirasi, kompyuter xotirasi, so‘z xotirasi, til xotirasi, tarixiy xotira; xotira – ijtimoiy institut sifatida, xotiraning institusional funksiyasi* va h.k.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyida “Xotira” fenomenini lingvokognitiv tadqiq qilish metodologiyasini taklif etamiz. Ushbu metodologiya o‘rganilayotgan fenomenni tizimlashtirilgan yondashuv orqali, ya’ni til materiali hamda kognitiv birliklarni bosqichma-bosqich tahlil qilishga asoslanadi: 1-bosqich: Fenomenni kognitiv tilshunoslik birligi sifatida tanlashda uni hodisa va tushunchadan farqlash; 2- bosqich: Fenomenni tadqiq qilishda kontekstni aniqlab olish; 3 - bosqich: Empirik materialni yig‘ish va tahlil qilish; 4-bosqich: Konsept va kategoriya xarakteristikasi va strukturasi aniqlash; 5-bosqich: Natijalarni qiyoslash va talqin etish.

Navbatdagi vazifa sifatida ishimizning o‘zagi bo‘lgan xotiraning turli fanlar kesimida tadqiq qilishimiz ushbu fenomen haqida serqirra bilimlarga erishishga yordam beradi. Xotiraning fiziologik asosi bo‘lib, asab tizimining o‘zida tashqi muhit voqealari organizmning bunga bo‘lgan reaksiyasi haqidagi axborotni yig‘ib, saqlashi va uni bir necha bor qo‘llash hisoblanadi. Falsafiy ensiklopedik lug‘atda berilgan ta’rifga ko‘ra xotira idrok qilish va tasavvurlarni boshdan kechirilgandan so‘ng saqlab qolish qobiliyatidir; xotira, shuningdek, axborot saqlanadigan joy

ma'nosida ham qo'llaniladi. O'ylay oladigan mavjudot uchun tasavvurdan keyingi o'rinda xotira turadi. Xotiraning roli shunchalik muhimki, u ishtirok etmagan joyda qolgan barcha insoniy qobiliyatlar foydasiz bo'lib qoladi; tasavvur jarayonida, xulosa chiqarish va bilish jarayonlarini xotirasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'zbek olimlari "Umumiy psixologiya" kitobida "xotira – individning o'z tajribasiga ko'ra eslashi, eslab qolish va keyinchalik esga tushirish qobiliyati" deya ta'riflashadi³¹.

Til va xotira bog'liqligini o'rganuvchi tadqiqot ishlarini ikki yo'nalishga ajratish mumkin: 1) xotira va o'tmish haqidagi tasavvurlarning shakllanishida tilning ta'siri hamda 2) aynan xotiraga tilning ta'siri. "Xotira" konsepti borasidagi tadqiqotlarning samaradorligini baholashda L.I.Yartsevaning "Память в языковой картине мира (на примере французского метафорического словоупотребления)" maqolasini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Mazkur ish zamonaviy fransuz tilidagi metaforik so'z qo'llanishlari asosida xotiraning oddiy (lisoniy) modelining ba'zi xususiyatlarini tasvirlashga bag'ishlangan bo'lib, insonning aqliy faoliyatini aks ettiradi³².

Yana bir rus olimasi N.G.Bragina o'zining "Память в языке и культуре" asarida kitobxonlar e'tiboriga rus tili sohiblarining jamoaviy tasavvurlarini ifodalovchi "Xotira" nomli frazeologik matnni taqdim etadi. Muallifning fikricha, "ushbu materialning hajmi tildagi va madaniyatdagi konseptning ishlanganlik darajasini ko'rsatadi. Mazkur asar xotiraning tilda, barqaror va muntazam so'z birikmalarida; til sohiblarining verbal va noverbal xotiraning tilda qanday ifodalanishi haqidagi ma'lumotlardan tashqari, barqaror va muntazam xulq-atvori haqida ham ayrim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi"³³.

"Xotira" frazeotematik guruhi rus, ingliz va tatar tillarida G.A.Bagautdinovanning "Человек во фразеологии: антропоцентрический и аксиологический аспекты" (Frazeologiyada inson: antropotsentrik va aksiologik jihatlar) nomli doktorlik dissertatsiyasida batafsil ko'rib chiqilgan. Muallifning fikricha, bu guruh juda keng va u birlashtirgan frazeologizmlarning xarakteri bo'yicha nihoyatda xilma-xildir³⁴.

"Xotira", "tarixiy xotira", "milliy xotira", "ijtimoiy xotira", "madaniy xotira" kabi terminlashtirilgan tushunchalar bugungi kunda professional lingvistik diskursda qo'llanilmoqda va eng muhimi, turli til tushunchalarini anglash jarayonida ishtirok etmoqda.

"Xotira" terminkonsepti ijtimoiy-madaniy va madaniy-lisoniy hodisalar bilan bog'liqligi tufayli ta'sirchanligi bilan qimmatlidir. U lisoniy, madaniy va boshqa qadriyatlar (masalan, *yuridik xotira*, *diniy xotira*, *etnoijtimoiy xotira*, *omnaviy xotira*, *axborot xotirasi*, *irsiy bo'lmagan xotira*, *kechikuvchi xotira*, *ijodiy xotira*, *oilaviy xotira* va boshqalar) bilan tavsiflanadi, bu esa "sifat + xotira" kabi murakkab

³¹ Умумий психология. Маърузулар матни. – Тошкент, 2016. – 124 б. // <https://ansya.ru/health/termiz-davlat-universitetipedagogika-fakuleiteti-psihologiya-k/main.html>

³² Ярцева Л.И. Память в языковой картине мира (на примере французского метафорического словоупотребления) // Вісник Запорізького державного університету. Філологічні науки, 2002. – № 1. URL: <http://www.zsu.zp.ua/herald/articles/1959.pdf>.

³³ Брагина Н.Г. Память в языке и культуре. – М.: Языки славянских культур, 2007. – С. 39.

³⁴ Багаутдинова Г.А. Человек во фразеологии: антропоцентрический и аксиологический аспекты: Дисс. ... докт. филол. наук. – Казань, 2007. – С. 58-64.

terminologik birikmalarning shakllanishiga imkon yaratadi. Bunda xotira asosiy tushunchasining u yoki bu jihati birinchi o‘ringa chiqadi³⁵.

Kognitiv tilshunoslikda xotirani konseptuallashtirish jarayoni turli til sohiblari lisoniy ongida aks etishiga bag‘ishlangan ishlardan O.N.Proxorova va boshqalar yaratgan “Ментальные структуры и их репрезентация лексическими средствами в германских и романских языках” nomli asarini roman-german tillarida ekstralingvistik omillarning ruhiy jarayonlarni leksik verballashuvi muammosiga bag‘ishlangan ishlar qatoriga kiritish mumkin. Bunda olimlar “Xotira” mental strukturasi “ixtiyoriy-beixtiyorlik”, “mental-borliq”, “persepsiya”, “hozirgi zamon bilan bog‘liqlik”, “individuallik” va boshqa konseptual sohalarga bo‘lishgan³⁶. Yana rus olimlaridan O.V.Shatalova xotiraning metaforik konseptuallashtirishini tadqiq qilgan bo‘lsa³⁷, xotirani turli gap bo‘laklari asosida kognitiv o‘rganishga V.V.Turovskiy, Y.N.Rogachova, R.F.Isxakova, L.N.Golaydenkolar o‘z ilmiy ishlarini bag‘ishlashgan³⁸. Xotirani frazeologiyada o‘rganishda T.I.Skorobogatova, I.A.Kupriyeva, N.V.Skoromislovalarning ishlari e‘tiborga molikdir³⁹. Bu kabi ishlarda xotirani lingvomadaniy tadqiq nuqtai nazaridan o‘rganishda milliy o‘ziga xosliklar yaqqol aks etishi dalillanadi. O‘zbek tilshunos olimlaridan D.I.Djafarovaning “Fransuz va o‘zbek tillarida tarixiy xotirani ifodalovchi frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlari” mavzusidagi fan doktori dissertatsiyasi O‘zbekistonda “Xotira” fenomenini o‘rganishga hissa qo‘shdi. Muallif “tarixiy xotira”ga oid frazeologik birliklarning ijtimoiy, lisoniy, madaniy xususiyatlari hamda iboralarga xos bo‘lgan tarixiy mazmun ifodasi bilan bog‘liq til tizimining ijtimoiy-madaniy xarakterdagi omillarini xotira turlari asosida isbotlagan⁴⁰.

Xotirani lingvistik o‘rganish fragmentar bo‘lib, keng qamrovli tushunishni taklif qilmaydi. O‘tmish haqidagi kollektiv tasavvurlarni qayd etuvchi diskursiv amaliyotlarni o‘rganish ushbu tasavvurlarning tuzilishini tushunish uchun istiqbolli hisoblanadi.

³⁵ Skorobogatova T.I., Suraleva O.Yu. «Терминоконцепт «Память» в современном лингвокультурном тезаурусе: исследовательские эвристики» // Актуальные проблемы филологии и педагогической лингвистики, № 11, 2009. – С. 50-53.

³⁶ Прохорова О.Н. Ментальные структуры и их репрезентация лексическими средствами в германских и романских языках. – М.: Флинта, 2013. – 332 с.

³⁷ Шаталова О.В. Репрезентация концепта «память» в текстах русских элегий первой трети XIX века: Дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2005. – 250 с.

³⁸ Туровский В.В. Память в наивной картине мира: забыть, вспомнить, помнить // Логический анализ языка. Культурные концепты. – М.: 1991. – С.91-94.; Rogachёva Ю.Н. Репрезентация фрейма «память» в современном английском языке (на материале глагольной лексики): Дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2003. – 182 с.; Исхакова Р.Ф. Когнитивно-семантический анализ мнемических глаголов (на материале современного английского языка): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – СПб., 2009. – 18 с.; Golaydenko L.N. Прилагательные со значением памяти: воспоминания и их функционирование в художественной прозе // Вестник Челяб. Гос. Пед. Ун-та. – 2012. – № 8. – С.205-215.

³⁹ Skorobogatova T.I. Фразеология и историческая память: интериоризация нового знания в лингвистике (на материале французского языка): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Майкоп, 2013. – 52 с.; Skoromyslova N.V. Фразеосемантическое поле психических процессов памяти: Дисс. ... канд. филол. наук. – М.: 2003. – 176 с.; Kuprieva I.A. Концептуальные основания формирования значения лексики, номинирующей психические процессы в современном английском дискурсе // Вестник Томского гос. пед. ун-та. – Томск, 2013. – № 10 (138). – С.24-31.

⁴⁰ Djafarova D.I. Fransuz va o‘zbek tillarida tarixiy xotirani ifodalovchi frazeologik birliklarning lisoniy xususiyatlari: Filolgiya fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2017. – 280 b.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirda tilshunos olimlar xotirani nafaqat o‘tmishga, balki kelajakka ham aloqasi bor bir fenomen sifatida yetarlicha baholamayabtilar. Bu kamchilikni bartaraf etishda biz xotirani faqatgina o‘tmishni bildiruvchi fenomen sifatida emas, balki uni hozirgi zamon va kelajak bilan bog‘liqlikda o‘rganadigan ilmiy ishlar safini kengaytirishga hissa qo‘shmog‘imiz darkor. Demak, bugungi kunda “xotira” atamasi tilshunoslik fanining tadqiqot sohalariga kiritilganligini ta’kidlash mumkin, bu esa xotira metatilini muomalaga kiritish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Xotira” konseptini ingliz va o‘zbek olami manzarasida o‘rganish asoslari** deb nomlangan bo‘lib, unda ingliz va o‘zbek olami ilmiy, sodda, kasbiy (leksikografik hamda media) manzarasida “Xotira” fenomenining konseptuallashtirish jarayoni aniqlanib, ularning o‘zaro o‘xshash va farqli xususiyatlari ko‘rib chiqilgan.

Konseptni chuqurroq o‘rganish uchun uni turli tillarda taqqoslash, uning madaniyat va mentalitetdagi o‘rnini tadqiq qilish kerak. Milliy konseptosferalar konseptlarning tuzilishi bilan farqlanadi, bu tarjima nazariyasi, tipologiya va tillarni o‘qitishda namoyon bo‘ladi.

Ingliz tilidagi “Memory” konseptini olamning ilmiy manzarasida modellashtirishda ixtisoslashtirilgan va ensiklopedik lug‘atlardagi “xotira” ta’riflarini tahlil qilish zarur. O.A.Kornilov ilmiy dunyoqarash tilda ifodalangan va atama sifatida belgilangan mavjudlik sohasidagi bilim birliklarini o‘z ichiga oladi, degan fikrni olg‘a suradi⁴¹.

Lug‘at ta’riflarida “Memory” leksemasining quyidagi ma’nolari ajratib ko‘rsatiladi va denotativ ma’nosiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi (1-jadval).

Ingliz olami ilmiy manzarasida “Memory” konsepti yadrosida “o‘tganlarni eslash marosimi”, “eslash qobiliyati”, “kompyuter qismi”, “xotira turlari” kabi konseptlar orqali namoyon bo‘ladi. Yaqin periferiyada esa “o‘rganilgan ma’lumotni qayta aks ettirish qobiliyati”, “organizm faoliyati”, “fan sohasi” hamda “o‘tmish” kabi konseptlar bilan ifodalanadi.

1-jadval

Ingliz olami ilmiy manzarasida “Memory” konsepti maydonining tuzilishi

Ingliz tilidagi ilmiy lug‘atlar
Yadrodagi kognitiv belgilar
a ceremony of commemoration; service for the dead a historical or biographical record the power or a process of mental representation of at least a recognizable equivalent of the reproduced experience (4-10 %)
the faculty of remembering (learning, retention, recall and recognition, motor habits and skills) (10-25 %)
a part of a computer, where instructions are kept (11-28 %)
types of Memory (6-15 %)
Yaqin periferiyadagi kognitiv belgilar
The power or function of reproducing and identifying what has been learned or experienced (2-5 %)

⁴¹ Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. – М.: ЧеРо, 2003. – 349 с.

The retention of any modification of structure or behavior resulting from the organism's activity, from the action of the environment, or even from heredity (2-5 %)
field of science (3-8 %)
the time within which past events can be or are remembered (2-5 %)
The power or a process of recognition, comprising a consciousness of the familiarity of the experience and a reference of it to a definite past time or occasion (2-5 %)
Uzoq periferiyadagi kognitiv belgilar
-

Tadqiqotimiz davomida “Xotira” konseptining o‘zbek olami ilmiy manzarasida aks etishini bir qator ensiklopedik hamda turli sohaga tegishli lug‘atlardagi ta’riflar asosida tahlil qildik. Bular texnologik terminlar, psixologiya, falsafa, tibbiyot sohalariga oid hamda entsiklopedik lug‘atlardir.

O‘zbek tiliga oid maxsus ilmiy lug‘atlarning o‘rganilayotgan til materiali “Xotira” leksemasining turli ma’nolarini aktuallashtiradi. “Xotira” konseptining kognitiv xususiyatlarini yadro, shuningdek, yaqin va uzoq periferiyadagi kognitiv belgilariga ajratamiz. Past chastotali kognitiv belgilar o‘rganilayotgan konseptning maydon strukturasi uzoq periferiyasini ifodalaydi (2-jadval).

O‘zbek olami ilmiy manzarasida ilmiy dunyoqarashni tahlil qilib, shuni aniqladikki, “Xotira” konsepti yadroda “eslash qobiliyati” konsepti bilan konseptuallashta, yaqin periferiyada “xotira turlari”, “aksiologik belgilar” hamda “kompyuter qismi” kabi konseptlarda aks etadi. Uzoq periferiya kognitiv belgilari aniqlanmadi.

Ingliz va o‘zbek olami kasbiy (leksikografik) manzarasida “Xotira” konseptining konseptuallashtirish jarayonida asosiy e’tibor “Xotira” konseptining tilda ifodalanishi xususiyatlarini kognitiv jihatdan tahlil qilishga qaratilgan.

2-jadval

O‘zbek olami ilmiy manzarasida “Xotira” konsepti maydonining tuzilishi

O‘zbek tilidagi ilmiy lug‘atlar
Yadrodagı kognitiv belgilar
O‘rganilgan yoki boshdan kechirilgan narsalarni takrorlash va aniqlash qobiliyati yoki funksiyasi; eslab qolish qobiliyati (o‘rganish, eslab qolish, eslash va tanib olish, harakat odatlari va ko‘nikmalari); (11-55 %)
Yaqin periferiyadagi kognitiv belgilar
xotira turlari (3-15 %)
aksiologik belgilar (3-15 %)
kompyuterning ko‘rsatmalar saqlanadigan qismi (2-10 %)
Uzoq periferiyadagi kognitiv belgilar
–

Konseptning tushunchaga xos tomonlarini aniqlashda, avvalo, shu konsept aks etgan izohli lug‘atlarni tahlil qilib chiqish lozim. Shu vazifani bajarishda biz ingliz va o‘zbek tillaridagi izohli lug‘atlarni tadqiqot materialı sifatida tanlab oldik (3-jadval).

3-jadval

Ingliz olami kasbiy (leksikografik) manzarasida “Memory” konsepti maydonining tuzilishi

Markaziy kognitiv belgilar (≥ 10 %)	Yaqin periferiya kognitiv belgilari (3 % > 10 %)	Uzoq periferiya kognitiv belgilari (1 % ≥ 3 %)
ability to remember – 17 % computer part – 13 % a ceremony of commemoration – 15 %	smth. you remember – 7,7 % the fact that people remember a particular person or event – 7,7 % faculty of remembering – 5,8 % the recall and recognition of anything previously learned and experienced – 5,8 % character conduct preserved in remembrance, history or tradition – 5,8 % the time within which past events can be or are remembered – 5,8 %	the strength and trustworthiness of one’s power to reach and present or to recall the past – 2 % the retention of any modification of structure or behavior resulting from the organizm’s activity – 2 % a formula used after the names of sovereigns, princess or other notable persons who have been distinguished for their actions or virtues – 2 % field of science (mnemonics) – 2 %

Ingliz olami professional (leksikografik) manzarasida konsept yadrosida “qobiliyat”, “kompyuter qismi”, “marosim” kabi konseptlarda aks etishini kuzatdik. Yaqin periferiyada xotiraga asosan “antropotsentrik xususiyatlar” hamda “vaqt kategoriyasi” kabi konseptlar xosdir. Uzoq periferiyada esa xotira “qobiliyat” hamda “fan sohasi” sifatida talqin qilinadi. O‘zbek olami kasbiy (leksikografik) manzarasida lug‘aviy ma’nolarga ko‘ra “Xotira” konsepti yadrosida “es”, “yod”, “xayol va fikr” hamda “yuz xotir”, “andisha” kabi konseptlar bilan konseptual muvofiqlashar ekan. Yaqin periferiyada o‘rganilayotgan konsept esa “esdalik”,

“yodgorlik”, “ism” kabi konseptlar bilan muvofiqlashuvi aniqlandi. Uzoq periferiyada kognitiv belgilar aniqlanmadi (4-jadval).

Navbatdagi vazifa esa o‘rganilayotgan konseptning olamning kasbiy (media) manzarasida aks etishini o‘rganishdir. Ishimizda o‘rganilgan mediamatnlar “Xotira” konseptining ikki qarindosh bo‘lmagan olam manzarasida turlicha aks etishini tasvirlaydi. Tahlil materiali sifatida 2019-yildan – 2023-yillar oralig‘idagi davrda Buyuk Britaniya davriy nashrlarida chop etilgan maqolalar tanlab olindi.

4-jadval

O‘zbek olami kasbiy (leksikografik) manzarasida “Xotira” konsepti maydonining tuzilishi

Markaziy kognitiv belgilar ($\geq 10\%$)	Yaqin periferiya kognitiv belgilari ($3\% > 10\%$)	Uzoq periferiya kognitiv belgilari ($1\% \geq 3\%$)
esda saqlash qobiliyati – 29 % eslab qolish – 21 % esga tushirish qobiliyati – 21 % es, yod hayol – 21 % fikr – 21 % biror kimsa uchun qilinadigan hurmat, yuz-xotir, andisha – 29 % esdalik, yodgorlik – 14 % Xatira (ism) – 21 % tushuncha – 14 %	o‘ylash, fikrlash qobiliyati – 7 % miya – 7 %	-

Gazeta va jurnallarni tanlash mezonini xotira mavzusi hamda xotira haqidagi bayonotlarni sarlavhalarda aks etganligi bilan belgilanadi. Ingliz mediamatnlarida keltirilgan “Memory” konseptini og‘zaki ifodalaydigan leksik vositalarni tahlil qilib, tegishli ma’nalarni aniqladik. Har bir ma’no uni tashkil etuvchi semalar asosida tahlil qilindi. Mazmun jihatidan o‘xshash semantik komponentlar “Memory” konseptining kognitiv xususiyatlari sifatida shakllantirilib so‘ngra umumlashtirildi (5-jadval).

5-jadval

Ingliz olami kasbiy (media) manzarasida “Memory” konsepti maydonining tuzilishi

Markaziy kognitiv belgilar ($\geq 10\%$)	Yaqin periferiya kognitiv belgilari ($3\% > 10\%$)	Uzoq periferiya kognitiv belgilari ($1\% \geq 3\%$)
Mental disorders – 15 (27 %) Types of memory – 15 (27 %) Metaphors used with memory – 15 (27 %) Covid 19-7 (13 %)	Verbal ability – 3 (5 %)	Air pollution – 1 (1 %)

Mediamatn materiali asosida ajratib olingan “Memory” konseptining ingliz olami kasbiy (media) manzarasida xotira “Covid-19”, “psixik kasallik”, “xotira turlari” va “metaforik ko‘rinish” kabi hodisalar asosida konseptuallashishi isbotlandi. “Memory” konsepti yaqin periferiyada ingliz mediamatnida “nutq qobiliyati” konsepti bilan ifodalanadi. Uzoq periferiyada esa xotira “havoning ifloslanishi” bilan konseptuallashishi aniqlandi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, ingliz mediamatnida xotira bilan bo‘g‘liq psixik kasalliklar, xotiraning turlari va metaforik ko‘rinishi kabi mavzular dolzarb mavzu ekanligini ta’kidlash lozim.

“Memory” konseptining kontekstida asosiy mavzu *Covid-19* ekanligi shubhasizdir, chunki 2020-2023-yillarda koronavirus pandemiyasi avj olgan pallaga to‘g‘ri keladi. Albatta, butun dunyo ommaviy axborot vositalari bu masalani qo‘ldan kelgancha yoritishga intilishgan. Covid-19 virusining inson xotirasiga salbiy ta’siri haqidagi maqolalar davriy nashrlarda ko‘plab uchraydi. O‘zbek ommaviy axborot vositalarining matnlarida taqdim etilgan “Xotira” konseptini og‘zaki ifodalaydigan lisoniy vositalarni tahlil qilib, tegishli ma’noalar aniqlandi (6-jadval).

Xotira o‘zbek mediamatnida “biologik hodisa”, “tarix bilan bog‘liq omillar”, “zamonaviy texnologiya” kabi konseptlar bilan izohlanadi. Bu mavzudagi muhokamalar o‘zbek mediasida asosiy mavzu ekanligi dalillandi. “Xotira” konsepti yaqin periferiyasida “bayram va musobaqa”, “xotirani yaxshilovchi omillar”, “baholash omili”, “Covid-19” kabi konseptlar asosida konseptuallashadi. “Xotira” konseptining kognitiv modeli uzoq periferiyasini tashkil etuvchi kognitiv belgilar aniqlanmadi.

6-jadval


O‘zbek olami kasbiy (media) manzarasida “Xotira” konsepti maydonining tuzilishi

Markaziy kognitiv belgilar (≥ 10 %)	Yaqin periferiya kognitiv belgilari (3 % > 10 %)	Uzoq periferiya kognitiv belgilari (1 % ≥ 3 %)
Biologik hodisa (33 %) Tarix bilan bog‘liq omillar (25 %) Zamonaviy texnologiya (16 %)	Bayram va musobaqa (8%) Xotirani yaxshilovchi omillar (8 %) Baholash omili (4 %) Covid-19 (4 %)	-


Olamning sodda manzarasining xususiyatlari ingliz hamda o‘zbek fuqarolar ishtirok etgan yo‘naltirilgan og‘zaki-assotsiativ eksperiment asosida aniqlandi. Og‘zaki-assotsiativ eksperiment bizga “Memory” konseptining kognitiv belgilari maksimal sonini ta’kidlash imkonini beradi. Eksperimentning ingliz tili bilan bog‘liq qismi inglizzabon informantlar bilan o‘tkazildi. Ularga Feysbuk ijtimoiy tarmog‘idagi turli gruppalar a’zolariga internet orqali anketa yuborilib, unda “Write 3-5 words or expressions related to the concept of MEMORY (it is important for us the first associations that came to mind)” so‘roq shakli bilan murojaat etildi. Anketaga 102 ta respondentdan 235 ta reaksiya javob tariqasida olingan. Eksperimentda 41 ta ayol, 61 ta erkak ishtirok etdi. Yosh tafovuti erkaklar orasida

17-78, ayollar esa 17-35 yoshni tashkil qildi.


Yadro



Yaqin periferiya






Uzoq periferiya



Yuqoridagi reaksiyalarni tahlil qilar ekanmiz, “Memory” konseptining assotsiativ maydoni markazidan aqliy faoliyatga oid tushunchalar egallashi aniqlandi. “Memory” konseptining olamning sodda manzarasi, assotsiativ maydoni markazida “Memory” konsepti “mental qobiliyat”, “xotira turlari”, “inson hayotidagi davr”, “baholovchi xarakterga ega sifatlar” hamda “o‘tmish haqidagi ma’lumotlar saqlanadigan ombor” bilan konseptuallashuvi aniqlandi. Yaqin periferiyadagi assotsiatsiyalar asosini “xotirani yaxshilashga xizmat qiluvchi omillar”, “axborot texnologiyalari vositalari”, “inson tabiati va organizmiga xos jihatlar” bilan konseptuallashuvi dalillandi. Uzoq periferiyada “Memory” konsepti ingliz xalqi sodda manzarasida “inson ismi”, “kasallik” hamda “joy nomi” kabi konseptlar orqali verballashishi aniqlandi.

Eksperimentning o‘zbek tili bilan bog‘liq qismi o‘zbekzabon informantlar bilan o‘tkazildi. Ularga *Google.docs* platformasi orqali anketa yuborilib, unda

so‘rov anketasi bilan murojaat etildi. Anketaga 108 ta respondentdan 227 ta reaksiya javob tariqasida olingan. Eksperimentda 44 ta ayol, 64 ta erkak ishtirok etdi.



“Xotira” konseptining o‘zbek xalqi olami sodda manzarasi yadrosida o‘rganilayotgan konsept “aqliy qobiliyat”, “baholash”, “inson fiziologiyasi”, “axborot manbai” hamda “inson hayotidagi davr” kabi konseptual belgilar aniqlandi. Yaqin periferiyada “Xotira” konsepti o‘zbek olami sodda manzarasida “xotira turlari”, “voqea-hodisalarni o‘zida aks ettiruvchi omillar” bilan konseptuallashtirish, uzoq periferiyada “xotirani yaxshilovchi omillar” hamda “konteyner” bilan konseptual muvofiqlashadi. “Xotira” konseptining o‘zbek olami sodda manzarasida aks etishini assotsiativ eksperiment yordamida o‘tkazilgan tahlildan xulosa qilish mumkinki, “Xotira” konsepti o‘zbek tilida o‘zida xotiraning mental, fiziologik, ijtimoiy va madaniy aspektlarini aks ettiradi.

Ishning to‘rtinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek olami manzarasida “Xotira” kognitiv kategoriyasi”**ni tadqiq qilinishiga bag‘ishlangan bo‘lib, ingliz va o‘zbek olami ilmiy, kasbiy hamda sodda manzarasida “Xotira” kognitiv kategoriyasining tarkibiy tuzilishi chuqur o‘rganilgan.

Tadqiqot natijalarida shuni aniqladikki, “Xotira” lingvokognitiv fenomenining ingliz va o‘zbek olami lisoniy manzarasida konseptuallashtirish hamda kategoriyalashtirish hodisasi universal xarakterga ega bo‘lishi bilan birga milliy o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega ekanligi aniqlandi. Ta’kidlash lozimki, “Xotira” lingvokognitiv fenomeni mental voqe‘likning bir qismi bo‘lishi bilan birga, ushbu ikki lingvomadaniyat vakillari milliy ong (mentalitet)ida dominantalar modelini aks ettirib, “til – mental voqelik modeli – lingvomadaniyat” mushtarakligi asosida lingvomadaniyatlarda dominant belgilarni tartibga soluvchi funktsiya sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu bobda “Xotira” kognitiv kategoriyasi strukturasi kompleks tahlilini

o'tkazish ushbu bo'limning maqsadi bo'lib hisoblanadi. Bunda "Xotira" kognitiv kategoriyasining olamning ilmiy, kasbiy (leksikografik va media) hamda sodda manzarasida kategorial struktura asosida prototip va kategorial differensial belgilari aniqlandi.

Ingliz va o'zbek olami manzarasida "Xotira" kognitiv kategoriyasini o'rganishning asosiy bosqichlari quyidagicha olib borildi: 1. Turli olam manzaralarida o'rganilayotgan kategoriyaning chog'ishtirma tadqiqi o'tkazildi. 2. Ingliz va o'zbek lisoniy ongida lingvokognitiv kategoriyalashtirishning lingvomadaniy xususiyatlari aniqlandi. 3. "Xotira" kategoriyasi tipologiyasi tuzildi.

Ushbu metodika "Xotira" kognitiv kategoriyasining struktur-semantik, konseptual hamda etnik o'ziga xoslik xususiyatlarini aniqlashda katta yordam beradi. Ingliz va o'zbek olami ilmiy manzarasida o'rganilayotgan konseptning markaziy tasniflash belgilari INSONGA XOS XUSUSIYAT, XOTIRA TO'G'RISIDAGI FAN, XOTIRA OBYEKT SIFATIDA, XOTIRA TURLARI kabi klassifikatorga bo'linadi.

Bu belgilarning o'zbek va ingliz olami ilmiy manzarasidagi eng yorqini INSONGA XOS XUSUSIYAT bo'lib, xotira umumlashtiruvchi hodisa sifatida talqin qilinadi.

XOTIRA OBYEKT SIFATIDA klassifikatsion belgisi ingliz olamning ilmiy manzarasida markaziy klassifikatsion belgilardan hisoblansa, o'zbek olamning ilmiy manzarasida yaqin periferiya zonasida joy oladi. Bundan bilish mumkinki, XOTIRA OBYEKT SIFATIDA ingliz olami ilmiy manzarasida ko'proq qo'llaniladi. XOTIRA TURLARI klassifikatori ham ingliz ham o'zbek olami ilmiy manzarasida bir xilda namoyon bo'ishi aniqlandi. XOTIRA TO'G'RISIDAGI FAN klassifikatori esa faqat ingliz olami ilmiy manzarasiga xos bo'lishi hamda yaqin periferiyadan joy olishi aniqlandi. Bunday klassifikator o'zbek olami ilmiy manzarasida aniqlanmadi. Uzoq periferiyadan joy olgan klassifikatorlar umuman aniqlanmadi. "Xotira" konsepti "Xotira" kognitiv kategoriyasi asosi sifatida talqin qilinadi va xotirani turli fan sohalarida mantiqiy hamda obyektiv idrok sifatida talqin qilinadi. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, ingliz va o'zbek olami ilmiy manzarasida "Xotira" kategoriyasi belgilarini qayd etish mumkin, bu esa atrofdagi voqelikning u yoki bu bo'lagini o'zida aks ettiradi.

Ingliz va o'zbek olami ilmiy manzarasida "Xotira" kognitiv kategoriyasini ifodalovchi umumiy belgilarning mos tushishi ushbu kategoriyaning ikkala olamning ilmiy manzarasida ilmiy jihatdan idrok etilishida o'xshash xususiyatlar mavjudligidan darak beradi. Bunda xotira biologik, psixologik, falsafiy, ijtimoiy, texnologik, madaniy hodisa sifatida gavdalanadi.

"Xotira" kognitiv kategoriyasining turli fan sohalarida o'rganilishi natijasida uning lingvokognitiv namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Olamning ilmiy manzarasida xotira *o'rgangan yoki boshdan kechirilgan narsalarni eslab qolish qobiliyati* sifatida namoyon bo'ladi. Bu prototip belgi bo'lib, turli tillarga turlicha xosligi aniqlandi. Biroq o'zbek va ingliz tillarida ushbu kognitiv kategoriyaning differensial belgilarida farqlar aniqlandi. O'zbek lisoniy ongida xotira *yodgorlik, ma'lumotlarni saqlovchi kompyuter qismi va inson ismi* bilan

bog‘liq kognitiv belgilarga ega. Ingliz tilida xotira *tarixiy yozuvlar, voqealar va odamlarning tarjimai holi haqidagi hisobotlar* bilan bog‘liq. Demak, aytish mumkinki, “Xotira” kognitiv kategoriyasi turli tillarda o‘ziga xos tarzda talqin qilinadi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi lug‘atlarda “Xotira” kognitiv kategoriyasining aniq chegaralangan kategoriya a‘zolari aniqlanmadi. Bunga sabab, lug‘atlarning yangilanib turishi hamda xotira haqidagi fanlarga ko‘plab yangi tushuncha hamda iboralarning kirib kelishidir. Kategorial belgilar nisbiy deb olinishi fikrimizcha to‘g‘ri bo‘lar edi. Shunday qilib, “Xotira” kognitiv kategoriyasi *aniq chegaralanmagan kategoriya* sifatida talqin qilinadi.

Navbatdagi vazifamiz kategoriyalashtirish turini aniqlashdan iborat. Ushbu holda Eleonora Roshning prototiplar (*uch sathli kategoriyalashtirish*) nazariyasiga tayanib tahlil olib boramiz. Bunda xuddi konseptni sarhadlarga ajratganimizdek, kategoriyalarning klassifikatsion belgilari asosida uch sathga bo‘lamiz, ya‘ni superordinat, bazaviy hamda subordinat sathlar. Ingliz olami ilmiy manzarasida “Xotira” kognitiv kategoriyasining quyidagi sarhadlari aniqlandi: *Superordinat* sarhadga yorqinlik darajasi bo‘yicha eng kam bo‘lgan klassifikatsion belgi AXBOROT MANBAI belgilandi. *Bazaviy* sarhaddan esa XOTIRA OBYEKTI hamda XOTIRA TURLARI klassifikatsion belgilari bir xilda joy egallashdi. *Subordinat* sarhad esa INSONGA XOS XUSUSUIYAT hamda XOTIRA TO‘G‘RISIDAGI FAN klassifikatsion belgilar bilan boyitildi.

Kategoriyalarni struktur tuzilishi jihatidan *ochiq va yopiq kategoriya* turiga bo‘lishimiz mumkin. Tahlilga tortilgan “Xotira” kognitiv kategoriyasi ochiq kategoriya turiga kiritildi. Ochiq turdagi kategoriyalar a‘zolari soni cheklanmagan bo‘ladi va shu bilan birga ularning podkategoriyalari soni turli omillar ta‘sirida o‘zgarib turadi. Ilmiy texnologiyalar rivojlanishi bilan kategorial a‘zolarning yangi turlari paydo bo‘ladi va eskilari yo‘qolib ketishi mumkin. Madaniyatlararo muloqotning kengayishi ma‘lum bir lingvomadaniyat sohiblarining geografik dunyoqarashlari asnosida kategoriya strukturasi ham o‘zgarishga moyil bo‘ladi. Shunday qilib, “Xotira” kognitiv kategoriyasi ham ochiq turdagi kategoriyalar sirasiga kiradi. Kategoriya tipologiyasida alohida bo‘lim sifatida moddiy dunyoga aloqasi bo‘lmagan va aloqasi bo‘lgan hodisalar tashkil qiladi. Bunda kategoriyalar *ideal*, ya‘ni moddiy dunyoga aloqasi yo‘q kategoriyalar (SEVGI, MA‘NAVIYAT, XOTIRA va b.) hamda moddiy dunyoga aloqasi bor, *konkret* kategoriyalar (MEVA, SABZAVOT, ISHCHI QUROLLAR va b.)ga ajratiladi. Demak, “Xotira” kategoriyasi *ideal kategoriya* sifatida talqin qilinadi.

Ideal va konkret kategoriyalar kategoriyaning aksiologik mohiyatining muqimligi yoki o‘zgaruvchanligiga qarab farqlanadi. Ba‘zi abstrakt kategoriyalar jamiyatda hukmron bo‘lgan g‘oyalar ta‘sirida bo‘ladi. Masalan, “Xotira” kognitiv kategoriyasi o‘zbek olami lisoniy manzarasida insonga xos xususiyat sifatida talqin qilingan. Ingliz olamning lisoniy manzarasida esa xotira obyekt sifatida hamda xotira turlari bir xilda aks etadi. *Intensional kategoriyalashtirish* turiga avvlambor g‘oyaviy omilni kiritishimiz lozim. Aynan bir ijtimoiy-siyosiy tuzum davrida shakllangan g‘oyalar, qadriyatlar, ayniqsa, mavhum turdagi kategoriyalarga o‘z

ta'sirini o'tkazadi. Bizning talqiqot obyektimiz hisoblangan "Xotira" lingvokognitiv fenomeni ana shunday kategoriyalar sirasiga kiradi. Hukmronlik qilayotgan g'oya va qadriyatlar xotira kabi mavhum kategoriyalarning tarkibiy qismi, ayniqsa, aksiologik jihatlariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.

Tadqiqot davomida turli izohli lug'atlardan xotiraga tegishli yig'ilgan ma'lumotlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, o'zbek olami kasbiy (leksikograik) manzarasida XOTIRA URF-ODAT va AN'ANA kabi kategorial belgisi ustunligi jihatidan ushbu lug'atlar yaratilgan davrda aynan shu klassifikatsion belgi aktual hisoblangan. Ingliz olami kasbiy (leksikografik) manzarasida esa texnikaviy inqilob, ya'ni kompyuterlar yaratilishi XOTIRANing AXBOROT MANBAI sifatida kategoriyalashtirilishiga olib kelgan. Dastlab xotira INSONGA XOS XUSUSIYAT sifatida lug'atlarda ko'plab talqin qilingan bo'lsada, keyinchalik g'oya va qadriyatlar hamda texnik rivojlanishlar asnosida boshqa klassifikatsion belgilarga o'z o'rnini bo'shatib berdi. Tahlillarga suyanib aytish mumkinki, intensional kategoriyalashtirish obyektiv xususiyatga ega hodisadir. Ingliz tili olami kasbiy (leksikografik) manzarasi "Xotira" kognitiv kategoriyasining quyidagi sarhadlari aniqlandi: *Superordinat* sarhadga yorqinlik darajasi bo'yicha eng kam bo'lgan klassifikatsion belgi XOTIRA TO'G'RISIDAGI FAN klassifikatsion belgisi aniqlandi. *Bazaviy* sarhaddan esa XOTIRA OBYEKT klassifikatsion belgilari bir xilda joy egallashdi. *Subordinat* sarhad esa INSONGA XOS XUSUSIYAT, AXBOROT MANBAI hamda URF-ODAT, AN'ANA klassifikatsion belgilar bilan boyitildi.

O'zbek tili olamning kasbiy (leksikografik) manzarasida "Xotira" kognitiv kategoriyasining quyidagi sarhadlari aniqlandi: *Superordinat* sarhadga yorqinlik darajasi bo'yicha eng kam bo'lgan XOTIRA OBYEKTI klassifikatsion belgi belgilandi. *Bazaviy* sarhaddan esa INSONGA XOS XUSUSIYAT, klassifikatsion belgilari bir xilda joy egallashdi. *Subordinat* sarhad esa INSON ISMI AXBOROT MANBAI, URF-ODAT va AN'ANA, ABSTRAKT TUSHUNCHA hamda XOTIRA TURLARI klassifikatsion belgilar bilan boyitildi.

Ingliz va o'zbek olami professional (media) manzarasida "Xotira" kognitiv kategoriyasining belgilari aniqlandi. "Xotira" kognitiv kategoriyasi olamning kasbiy (media) manzarasida "insonga xos hodisa hisoblanib, biologik unsur, turlari bo'yicha farq qiluvchi hamda Covid-19 pandemiyasi davriga xos fenomen" sifatida prototip belgiga ega bo'sa, o'zbek olami lisoniy manzarasida "Covid-19 bilan bog'liq hodisa", ingliz olami lisoniy manzarasida "air pollution" differensial belgilari bilan ajralib turadi.

Ingliz olami kasbiy (media) manzarasida *Superordinat* sarhadda yorqinlik darajasi bo'yicha eng kam bo'lgan ATROF-MUHIT BILAN BOG'LIQ HODISA klassifikatsion belgisi aniqlandi. *Bazaviy* sarhaddan esa klassifikatsion BAHOLASH OMILI belgisi eng yorqin darajaga ega bo'lib o'rin egalladi. *Subordinat* sarhad esa INSONGA XOS HODISA klassifikatsion belgisi bilan izohlandi.

O'zbek olami kasbiy (media) manzarasida *Superordinat* sarhaddan yorqinlik darajasi bo'yicha eng kam bo'lgan klassifikatsion belgi BAHOLASH OMILI joy

oldi. *Bazaviy* sarhaddan esa INSON HAYOTIDAGI DAVR hamda ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA klassifikatsion belgilari bir xilda joy egallashdi. *Subordinat* sarhadda esa INSONGA XOS HODISA klassifikatsion belgisi aniqlandi.

Olamning sodda manzarasida “Xotira” kognitiv kategoriyasining “insonga xos aqliy qobiliyat hamda inson fiziologiyasi bilan bog‘liq, inson hayotidagi davr, turlarga bo‘linuvchi, aksiologik xarakterga ega mental qobiliyat” prototip belgisi aniqlandi. Ingliz olami lisoniy manzarasiga “place” differensial belgisi, o‘zbek olami lisoniy manzarasiga esa “konteyner” differensial belgisi xosligi dalillandi.

Ingliz olami sodda manzarasida *Superordinat* sarhadga yorqinlik darajasi bo‘yicha eng kam bo‘lgan METAFORIK MA’NO klassifikatsion belgisi xosligi aniqlandi. *Bazaviy* sarhaddan esa AKSIOLOGIK BIRLIK klassifikatsion belgisi aniqlandi. *Subordinat* sarhad esa INSONGA XOS HODISA hamda AXBOROT MANBAI klassifikatsion belgisi bilan boyitildi. O‘zbek olami sodda manzarasi “Xotira” kognitiv kategoriyasining quyidagi sarhadlari aniqlandi: *Superordinat* sarhadda yorqinlik darajasi bo‘yicha eng kam bo‘lgan klassifikatsion belgi METAFORIK MA’NO belgilandi. *Bazaviy* sarhaddan esa INSONGA XOS HODISA klassifikatsion belgisi joy oldi. *Subordinat* sarhad esa AXBOROT MANBAI hamda AKSIOLOGIK BIRLIK klassifikatsion belgilar bilan belgilandi.

Olib borgan tadqiqotimiz natijasiga binoan “Xotira” kognitiv kategoriyasini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Struktur jihatdan tasniflashga binoan:

a) “Xotira” kognitiv kategoriyasi ahamiyatga ega kategorial belgilarga ega ekanligi jihatidan *aniq chegaralanmagan kategoriya* turiga kiradi;

b) kategoriyalar tarkibiga yangi kategorial a‘zolar qo‘shila olishi yoki aksi bo‘lgan holatga qarab, “Xotira” kognitiv kategoriyasi *ochiq turdagi kategoriya* turiga kiradi;

2. Semantik-grammatik klassifikatsiyaga binoan:

a) Kategoriya tipologiyasida alohida bo‘lim sifatida moddiy dunyoga aloqasi bo‘lmagan kategoriyalar ideal, ya’ni moddiy dunyoga aloqasi yo‘q kategoriyalar qatorida “Xotira” kognitiv kategoriyasi ham *ideal kategoriyalar* sirasiga kiradi.

XULOSA

1. Kognitiv tilshunoslik voqelikni idrok etishda til materiallarini va mantiqiy strukturani tilda aks etishini tadqiq qiladi. Hozirda kognitiv tilshunoslik fani turli yo‘nalishlarda rivojlanib, konsept va kategoriyalarni o‘rganishda turli metodikadan foydalanmoqda. Konsept va kategoriyalar asosan lingvokognitiv hamda lingvomadaniy yo‘nalishlarda tadqiq etilib, yangi tipologiya va usullarni rivojlantirishni taqozo etmoqda. Xususan, ingliz va o‘zbek tilshunosligida “Xotira” fenomenini olamning ilmiy, kasbiy va sodda manzaralarida o‘rganishga doir maxsus fundamental tadqiqot mavjud emasligi bu sohada izlanishlarni ko‘paytirish lozimligiga ishora qiladi. Shu boisdan, muammoning yechimi sifatida biz taklif etgan besh bosqichdan iborat metodikamiz turli olam manzaralari va turli tillar misolida boshqa mavhum fenomenni tadqiq qilishda qo‘llanilishi mumkin.

2. Lingvokognitiv tadqiqotlarda konsept va kategoriyalar tasnifiga oid

yondashuvlar xilma-xilligi konseptuallashuv hamda kategoriyalashuv jarayonlarini tushunish, inson borliq va tilni bilish jarayonida axborotni qanday tashkil etishi, talqin qilishini yanada aniqroq tahlil qilishga imkon beradi. Sxema sifatida qaralganda, “Xotira” freym va skriptga nisbatan umumiyroq tuzilma bo’lib, xotira funksiyasi, axborotni saqlash, o’chirish, unutish, xotira turlari, yaxshilovchi/pasaytiruvchi omillar, kasalliklar, marosimlar kabi asosiy elementlarni o’z ichiga oladi. Tipologik tadqiq asosida, “Xotira” konseptining *universal, noregulyativ, mavhum, metaprofessional, ijtimoiy-madaniy, mentefakt, aksiologik, lingvomadaniy* konsept hamda *konsept-sxema* turlari aniqlandi.

3. Olam manzarasi tipologiyasi turlicha talqin qilinadi. Ingliz va o’zbek tilida “Xotira” fenomeni tadqiqot davomida aniqlangan olamning ilmiy, kasbiy hamda sodda manzaralarida turlicha ifodalanadi: a) bunday farqlar til va madaniyat hamda kognitiv jarayonlar o’rtasidagi bog’liqlikni bildiradi; b) lingvokognitiv fenomenini turli olam manzaralarida tadqiq qilish borliqni chuqur anglash, kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish va madaniyatlararo muloqotni yaxshilashga xizmat qiladi; c) olam manzarasi dinamik va serqirra hodisa bo’lib, borliqni anglashda va u bilan o’zaro muloqatda muhim rol o’ynaydi.

